

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA


YANGI O'ZBEKISTON: ILMYIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ

2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR BATAREYA



ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ

НОВОУЧЕНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЧАСТЬ-2

NEW UZBEKISTON: SCIENTIFIC
RESEARCH PART-2

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUJASSASALARI PROFESSOR-O'QUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TADIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

MAY №88



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 88-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 162 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараишлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви-

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)



6. Журналистика-

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –



Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудир, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

SKRINSHOT SUDDA DALIL BO‘LA OLADIMI?
FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA RAQAMLI DALILLAR
MUAMMOSI

Muhammadiyeva Ruhshona Muzaffar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoiy odil sudlov fakulteti, 2-bosqich talabasi
ruhshonamuhammadiyeva777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarida raqamli dalillarning maqbulligi masalasi skrinshot, elektron yozishmalar va elektron hujjatlar misolida tahlil qilinadi. O‘zbekiston qonunchiligida 2024-yildan boshlab raqamli dalil alohida protsessual kategoriya sifatida mustahkamlandi. Bu muhim qadam bo‘lsa-da, amaliyotda raqamli dalilning asli, ko‘chirma nusxasi, qog‘ozga chiqarilgan shakli, autentifikatsiyasi, saqlanish zanjiri va sud tomonidan tekshirilishi bilan bog‘liq bir qator bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Maqolada O‘zbekiston Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” va “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlari, xalqaro yondashuvlar, xususan, UNCITRAL Model qonuni, Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti, Germaniya va AQSh tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida raqamli dalillarni baholash bo‘yicha yagona protsessual standart, texnik bayonnoma, metama’lumotlar va mutaxassis ishtirokini tartibga solish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli dalil, elektron hujjat, skrinshot, elektron yozishma, maqbullik, autentifikatsiya, fuqarolik protsessi, iqtisodiy protsess, elektron raqamli imzo.

Sud ish yurituvida dalilning shakli tarixan qog‘oz hujjat, ashyoviy dalil, guvoh ko‘rsatuvchi yoki ekspert xulosasi atrofida shakllangan. Biroq hozirgi fuqarolik va iqtisodiy munosabatlarda huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab faktlar elektron muhitda yuzaga keladi: shartnomalar elektron imzo orqali tuziladi, qarzdorlik elektron yozishmalarda tan olinadi, tovar yetkazib berish bo‘yicha kelishuvlar messenjerlarda muhokama qilinadi, haqorat yoki ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladi. Shuning uchun sud uchun muammo endi faqat “dalil bormi?” degan savol emas, balki “bu raqamli ma’lumot haqiqiyliги, yaxlitligi va muallifligi bo‘yicha ishonchlimi?” degan savoldir.

O‘zbekiston qonunchiligiga 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli qonun orqali protsessual kodekslarga raqamli dalillar bo‘yicha maxsus normalarni kiritildi. Ushbu qonun raqamli dalil tushunchasi, uni to‘plash, taqdim etish, ta’minlash, tekshirish, baholash, saqlash va yo‘q qilish bilan bog‘liq tartiblarni protsessual qonunchilikka kiritishga qaratilgan. Bu O‘zbekiston sud-huquq tizimi uchun muhim



yangilikdir, chunki raqamli dalil endi oddiy “yozma dalilning elektron ko‘rinishi” emas, balki mustaqil isbotlash vositasi sifatida tan olinmoqda. Shu bilan birga, yangi normalar amaliyotdagi barcha savollarga javob bermaydi. Masalan, skrinshot mustaqil dalil sifatida qachon maqbul bo‘ladi? Telegram yoki WhatsApp yozishmasi aynan tarafga tegishli ekanini qanday aniqlash kerak? Elektron hujjatning qog‘ozga chiqarilgan nusxasi yozma dalilmi yoki raqamli dalil nusxasimi? Elektron ma‘lumotning yaxlitligi metama‘lumot yoki mutaxassis xulosasi orqali tekshirilmasa, sud uni qanday baholashi kerak? Maqola aynan shu savollar atrofida quriladi.

1. Raqamli dalilning protsessual-huquqiy tabiati

Fuqarolik protsessual kodeksining 71-moddasiga ko‘ra, taraflarning talab va e‘tirozlarini asoslaydigan holatlar hamda ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatli boshqa holatlar haqidagi ma‘lumotlar dalil hisoblanadi. Ushbu ma‘lumotlar taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari, guvoh ko‘rsatuvlari, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspert xulosalari hamda mutaxassis maslahatlari orqali aniqlanishi mumkin. Kodeks, shuningdek, kelib chiqish manbasi noma‘lum yoki qonunga xilof ravishda olingan ma‘lumotlar dalil bo‘la olmasligini belgilaydi.

Iqtisodiy protsessual kodeksida ham o‘xshash yondashuv mavjud. IPK 66-moddasida ish uchun ahamiyatli holatlar haqidagi ma‘lumotlar ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ekspert xulosalari, mutaxassis maslahatlari, guvoh ko‘rsatuvlari hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari orqali aniqlanishi belgilangan. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanish taqiqlanadi.

Bu normalar ikki asosiy xulosani beradi. Birinchidan, raqamli dalil yozma dalilning yordamchi shakli emas, alohida isbotlash vositasidir. Ikkinchidan, raqamli ma‘lumot sudga taqdim etilganining o‘zi yetarli emas; uning kelib chiqishi, qonuniy olingani, yaxlitligi va ishga aloqadorligi tekshirilishi shart.

FPK 89²-moddasiga ko‘ra, ish uchun ahamiyatga ega holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron ma‘lumotlar, shu jumladan elektron tarzda fayllar, audio- va videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog‘ida saqlanayotgan ma‘lumotlar hamda boshqa elektron ma‘lumotlar raqamli dalil hisoblanadi. Ushbu modda raqamli dalilning ko‘chirma nusxasi uning yaxlitligi va aynan o‘xshashligi saqlangan holda ko‘chirilgan elektron ma‘lumot ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, raqamli dalilning ko‘chirma nusxasi mavjudligi, qoida tariqasida, uning asl nusxasi mavjudligi bilan ta‘minlanishi kerak.

IPK 76²-moddasi ham mazmunan shunday yondashuvni takrorlaydi. Unda elektron fayllar, audio-video yozuvlar, Internetdagi ma‘lumotlar va boshqa elektron ma‘lumotlar raqamli dalil sifatida tan olinadi. Eng muhim jihat shundaki, raqamli dalilning qog‘ozdagi shakli, notarial tartibda tasdiqlangan raqamli dalillar bundan mustasno, yozma dalil hisoblanmasligi belgilangan.

Aynan shu norma amaliyotda katta ahamiyatga ega. Chunki sudlarga ko‘pincha skrinshotning qog‘ozga chiqarilgan shakli, messenjer yozishmasining skrinshoti yoki elektron pochta nusxasi taqdim etiladi. Bunday holatda hujjat “qog‘ozda” bo‘lgani uchun avtomatik ravishda yozma dalilga aylanmaydi. U



raqamli dalilning ko'chirma nusxasi sifatida baholanishi, uning asli yoki birlamchi elektron manbasi bilan bog'liqligi tekshirilishi kerak.

2. Elektron hujjat, raqamli dalil va yozma dalil o'rtasidagi chegaralar

O'zbekiston qonunchiligida elektron hujjatning huquqiy kuchi alohida tartibga solingan. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, elektron hujjat texnika vositalari, axborot tizimlari va axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy va norasmiy yozishmalarni olib borish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanilishi mumkin.

Mazkur qonunning muhim qoidasi shundan iboratki, elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Elektron hujjatning har bir aynan bir xil nusxasi, agar belgilangan tartibda haqiqiyliги tasdiqlangan bo'lsa, asl nusxa sifatida qaraladi. Elektron hujjatning qog'oz nusxasi ham bo'lishi mumkin, biroq bunday nusxa belgilangan tartibda tasdiqlanishi va saqlanishi kerak.

Bu yerda muhim nazariy farq bor: elektron hujjat va raqamli dalil bir narsa emas. Elektron hujjat huquqiy munosabatni rasmiylashtiruvchi elektron shakldagi hujjatdir, masalan, elektron imzo bilan tasdiqlangan shartnoma, hisob-faktura yoki dalolatnoma. Raqamli dalil esa ish uchun ahamiyatli faktni tasdiqlovchi har qanday elektron ma'lumot bo'lishi mumkin. Masalan, elektron shartnoma raqamli dalil sifatida sudga taqdim etilishi mumkin, lekin har qanday raqamli dalil elektron hujjat maqomiga ega emas. Screenshot, messenjer yozishmasi yoki ijtimoiy tarmoqdagi post, odatda, elektron hujjat emas, balki elektron ma'lumotdir.

Elektron raqamli imzo bu farqni yanada aniq ko'rsatadi. "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, elektron raqamli imzo yopiq kalit yordamida hosil qilinadi, imzo egasini aniqlash va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini tekshirish imkonini beradi. Agar elektron raqamli imzoning haqiqiyliги tasdiqlangan, kalit sertifikatini amal qilgan va imzo sertifikat maqsadlariga muvofiq ishlatilgan bo'lsa, elektron raqamli imzo qog'oz hujjatdagi qo'lda qo'yilgan imzo bilan tenglashtiriladi.

3. Raqamli dalil sudga qachon qabul qilinadi?

Raqamli dalilning maqbulligi faqat uning qonunda alohida dalil turi sifatida ko'rsatilgani bilan belgilanmaydi. Sud bunday dalilni baholashda uning ishga aloqadorligi, qonuniy yo'l bilan olingani, haqiqiyliги, yaxlitligi va protsessual tartibda tekshirilish imkoniyatini inobatga olishi kerak. Avvalo, raqamli ma'lumot ish uchun ahamiyatli faktni tasdiqlashi lozim. Masalan, qarzni tan olishga oid elektron yozishma da'vo predmetiga aloqador bo'lishi mumkin, biroq taraflarning umumiy shaxsiy yozishmalari har doim ham dalil sifatida ahamiyat kasb etmaydi. Ikkinchidan, dalil qonunga xilof yo'l bilan olinmagan bo'lishi shart. Ayniqsa shaxsiy yozishmalar, tijorat siri, parol bilan himoyalangan akkauntlar yoki xususiy serverlardan olingan ma'lumotlar bo'yicha bu talab alohida ahamiyatga ega. Uchinchidan, raqamli dalilning haqiqiyliги aniqlanishi kerak. Screenshotda bu masala



ayniqsa murakkab: rasmda ism, telefon raqami yoki profil surati ko‘rinishi uning aynan o‘sha shaxsga tegishli ekanini to‘liq isbotlamaydi. Elektron pochta esa header, domen, IP-manzil, server loglari yoki oldingi yozishmalar zanjiri dalilning ishonchliligini kuchaytiradi.

4. Screenshot qulay, lekin bahsli raqamli dalil

Screenshot sud amaliyotida eng ko‘p uchraydigan raqamli dalillardan biridir. U veb-sahifa, messengerlardagi yozishmasi, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqdagi post yoki shaxsiy kabinetdagi ma‘lumotni tezda qayd etish imkonini beradi. Biroq uning zaif tomoni shundaki, odatda metama‘lumotlar, asl fayl tuzilmasi, server bilan bog‘liqlik va o‘zgarish tarixi saqlanmaydi. O‘zbekiston protsessual qonunchiligida sud raqamli dalillarni bevosita tekshirishi, zarur hollarda ularni joylashgan joyida ko‘zdan kechirishi va mutaxassis jalb qilishi mumkinligi belgilangan. Biroq screenshotning maqbulligi bo‘yicha aniq mezonlar mavjud emas. Qaysi holatda screenshot yetarli bo‘lishi, qachon asl manba talab qilinishi yoki qachon notarial tasdiq zarurligi qonunchilikda batafsil ko‘rsatilmagan. Bu esa sud amaliyotida turlicha yondashuvlarga sabab bo‘lishi mumkin.

AQSh tajribasida elektron dalillarni qabul qilishda asosiy talab dalil aynan taraf aytayotgan manbadan kelib chiqqanini ko‘rsatishdir. Bunda guvoh ko‘rsatuvi, tizimning ishlash tartibi, yozuvning o‘ziga xos belgilari va boshqa texnik ma‘lumotlar inobatga olinadi. Bu yondashuv O‘zbekiston amaliyoti uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

5. Elektron yozishmalar: mazmun, mualliflik va kontekst muammosi

Elektron yozishmalar fuqarolik va iqtisodiy ishlarida muhim isbotiy ahamiyatga ega. Qarzni tan olish, shartnoma shartlarini kelishish, tovar yetkazilganini tasdiqlash yoki xizmat bajarilganiga e‘tiroz bildirish ko‘pincha elektron pochta, Telegram, WhatsApp, SMS yoki korporativ chatlar orqali amalga oshiriladi. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun elektron hujjatlar va elektron xabarlarining huquqiy kuchini tan oladi. Unga ko‘ra, shartnoma elektron hujjatlar yoki elektron xabarlar orqali tuzilishi mumkin. Shaxsni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beruvchi SMS, Face-ID va boshqa elektron usullar ham ayrim hollarda imzo vazifasini bajarishi mumkin. Biroq bu qoida barcha elektron yozishmalarga bir xil tatbiq etilmaydi. Elektron tijoratdagi xabar bilan oddiy messenger yozishmasining isbotiy kuchi bir xil emas. Elektron tijoratda foydalanuvchini aniqlash, shaxsiy kabinet, to‘lov tizimi yoki platforma loglari mavjud bo‘lishi mumkin. Oddiy messenger yozishmasida esa profil nomi, avatar yoki telefon raqami har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli, sud elektron yozishmani baholashda akkaunt kimga tegishli ekani, yozishma qachon va qaysi qurilmadan yuborilgani, yozishma to‘liqmi yoki tanlab olinganmi, uning mazmuni keyingi harakatlar bilan tasdiqlanganmi, degan savollarga e‘tibor qaratishi kerak. Ayniqsa iqtisodiy nizolarda taraflarning oldingi amaliy munosabatlari, elektron pochta domeni, bank operatsiyalari va shartnoma ijrosi elektron yozishmaning isbotiy kuchini oshiradi. Amaldagi qonunchilikda esa elektron yozishmalarni autentifikatsiya qilish bo‘yicha maxsus mezonlar yetarli emas. Telefon raqami egasini aniqlash, akkauntning tarafga tegishliligini tekshirish, chat eksporti, server loglari yoki metama‘lumotlar bilan ishlash tartibi batafsil



belgilanmagan. Shu bois sudlar ko‘pincha umumiy dalillar nazariyasi va mutaxassis xulosasiga tayanishga majbur bo‘ladi.

6. Elektron hujjatlar kuchli dalil, ammo to‘g‘ri taqdim etilsa

Elektron hujjatlar raqamli dalillar ichida eng barqaror isbotiy kuchga ega bo‘lishi mumkin. Ayniqsa elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar mualliflikni va hujjatning o‘zgarmaganligini tekshirish imkonini beradi. Bunday hujjatlarning kuchi oddiy qog‘oz nusxada emas, balki elektron fayl, imzo sertifikat va verifikatsiya imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Agar taraf elektron imzo bilan tasdiqlangan shartnomaning faqat qog‘ozga chiqarilgan PDF nusxasini taqdim etsa, sud elektron imzoni bevosita tekshira olmasligi mumkin. Bunday holatda asl elektron fayl, imzo sertifikat, imzolash vaqti va imzoning haqiqiylikni tasdiqlovchi texnik ma‘lumotlar talab qilinishi kerak. FPK va IPKda raqamli dalilning qog‘ozdagi shakli, notarial tartibda tasdiqlangan holatlar bundan mustasno, yozma dalil hisoblanmasligi belgilangan. Bu qoida elektron hujjatlarni ham to‘g‘ri shaklda taqdim etish zarurligini ko‘rsatadi. Elektron hujjatning qog‘oz nusxasi yordamchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, lekin asosiy isbotiy qiymat uning elektron shaklida va tekshirilish imkoniyatidadir. Bu yerda muhim masala shuki, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonunda elektron hujjat qog‘oz hujjatga tenglashtiriladi. Protsessual kodekslarda esa raqamli dalilning qog‘oz shakli yozma dalil hisoblanmasligi ko‘rsatiladi. Bu ziddiyat emas, balki ikki xil huquqiy rejimdir: elektron hujjatning yuridik kuchi uning elektron shakldagi haqiqiylikiga bog‘liq, suddagi isbotiy kuchi esa uni qanday taqdim etish va tekshirish mumkinligi bilan belgilanadi.

7. Xalqaro tajriba: O‘zbekiston uchun muhim yondashuvlar

Xalqaro tajribada raqamli dalillarga nisbatan uchta asosiy yondashuv mavjud: elektron shaklni kamsitmaslik, funksional ekvivalentlik va autentifikatsiya. UNCITRAL Elektron tijorat bo‘yicha Model qonuni elektron xabar yoki hujjat faqat elektron shaklda bo‘lgani uchun yuridik kuchdan mahrum qilinmasligi kerakligini belgilaydi. Uning 9-moddasida elektron ma‘lumot dalil sifatida faqat shakli sababli rad etilmasligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston qonunchiligida raqamli dalillarning alohida isbotlash vositasi sifatida tan olinishi ushbu yondashuvga mos keladi. Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti ham elektron imzoning huquqiy kuchini tan oladi. Unga ko‘ra, elektron imzo faqat elektron shaklda bo‘lgani uchun dalil sifatida rad etilmasligi kerak. Malakali elektron imzo esa qo‘lda qo‘yilgan imzo bilan teng yuridik kuchga ega. Bu yondashuv O‘zbekiston qonunchiligidagi elektron raqamli imzo institutiga yaqin.

Germaniya tajribasida malakali elektron imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat xususiy yozma hujjatga tenglashtiriladi. Bunday yondashuv elektron hujjatning isbotiy qiymatini kuchaytiradi va taraflar zimmasidagi isbotlash yukini aniqroq belgilaydi.



to'lov harakatlari, shartnoma ijrosi va server loglariga ham e'tibor qaratishi kerak. To'rtinchidan, elektron hujjatlar sudga imkon qadar asl elektron shaklda taqdim etilishi kerak. Elektron imzoli hujjatning oddiy qog'oz nusxasi emas, balki imzoni tekshirish imkonini beruvchi elektron fayl asosiy dalil sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

O'zbekiston qonunchiligida raqamli dalillarning tan olinishi sud-huquq tizimi uchun muhim bosqichdir. FPK va IPKda raqamli dalil, elektron ma'lumot, ko'chirma nusxa, qog'oz shaklning cheklangan protsessual qiymati, sud tomonidan tekshirish va mutaxassis ishtiroki kabi masalalar mustahkamlandi. Bu xalqaro tajribadagi umumiy yondashuvlarga mos keladi. Biroq raqamli dalilning isbotiy kuchi uni qonunda tan olish bilangina belgilanmaydi. Muhimi, bunday dalil qanday yig'ilgani, saqlangani, taqdim etilgani va tekshirilganidir. Screenshot tezkor, lekin zaif dalil; elektron yozishma mualliflik va kontekstni talab qiladi; elektron imzoli hujjat esa faqat asl elektron shaklda tekshirilganda kuchli dalil bo'la oladi. Shu sababli raqamli dalillar bo'yicha yagona sud amaliyoti, texnik bayonnoma standartlari, hash va metama'lumotlar bilan ishlash tartibi, elektron yozishmalarni autentifikatsiya qilish mezonlari ishlab chiqilishi zarur. Ana shunda raqamli dalillar tasodifiy screenshot darajasida qolmay, sudda ishonchli va tekshiriladigan isbotlash vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
3. 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni.
4. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun.
5. "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun.
6. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun.
7. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce.
8. Regulation No 910/2014, eIDAS.
9. German Code of Civil Procedure, §371a.
10. Federal Rules of Evidence, Rules 901, 902.
11. ISO/IEC 27037:2012 va NIST SP 800-86 raqamli forenzika bo'yicha tavsiyalar.



ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИК ТУШУНЧАСИНИНГ ИЛМИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ

Рустамов Зоир Аманович

Сурхондарё вилоят суди
раиси ўринбосари

Аннотация: Мазкур мақолада тўловга қобилиятсизлик тушунчасининг илмий-ҳуқуқий мазмуни, унинг иқтисодий ва ҳуқуқий аҳамияти таҳлил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни асосида мазкур институтнинг ҳуқуқий асослари, қарздор ва кредиторлар ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш механизми ёритилган. Мақолада тўловга қобилиятсизликнинг келиб чиқиш омиллари, санация ва ташқи бошқарув каби соғломлаштириш чоралари, жисмоний шахсларни тўловга қобилиятсиз деб топиш институтининг жорий этилиши ҳамда иқтисодий судлар амалиётидаги аҳамияти таҳлил этилган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг мазкур соҳага оид қарори мазмуни ва унинг ҳуқуқни қўллаш амалиётидаги ўрни кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Тўловга қобилиятсизлик, банкротлик, қарздор, кредитор, санация, ташқи бошқарув, иқтисодий суд, молиявий соғломлаштириш, иқтисодий барқарорлик, ҳуқуқий муносабатлар, банкротлик институти.

Бозор иқтисодиёти шароитида ҳар бир корхона, ташкилот ёки жисмоний шахс ўз молиявий мажбуриятларини вақтида бажариши муҳим ҳисобланади. Аммо иқтисодий қийинчиликлар, нотўғри бошқарув, бозордаги ўзгаришлар ёки ташқи омиллар сабаб айрим субъектлар қарзларини ўз вақтида тўлаш имкониятини йўқотиши мумкин. Бундай ҳолат “тўловга қобилиятсизлик” деб аталади.

Тўловга қобилиятсизлик - бу қарздорнинг ўзининг пул мажбуриятлари ва мажбурий тўловларини белгиланган муддатда бажара олмаслик ҳолатидир.

Оддий қилиб айтганда, шахс ёки корхонада қарзларини тўлаш учун етарли маблағ бўлмаса, у тўловга қобилиятсиз деб ҳисобланиши мумкин.

Тўловга қобилиятсизлик институти иқтисодиётда муҳим ўрин тутаети, чунки у қарздор ва кредитор ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш, молиявий барқарорликни таъминлаш ҳамда иқтисодий муомалани ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасида тўловга қобилиятсизлик институти ҳақида сўз юритганда тўловга қобилиятсизлик муносабатлари “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонун билан тартибга солинади. Ушбу Қонуннинг асосий мақсади қарздорнинг тўловга қобилиятсизлигини аниқлаш, кредиторлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, корхонани молиявий



соғломлаштириш, иқтисодий барқарорликни таъминлашга хизмат қилишдан иборат.

“Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонун замонавий бозор иқтисодиёти шароитида муҳим ҳуқуқий институтлардан бири ҳисобланади. Ушбу институт қарздорнинг ўз молиявий мажбуриятларини бажара олмаслиги билан боғлиқ муносабатларни тартибга солади. Ўзбекистонда мазкур соҳа 2022 йилда қабул қилинган янги таҳрирдаги қонун билан ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланди.

Мазкур институтнинг асосий мақсади фақат қарздорни банкрот деб топиш эмас, балки унинг тўлов қобилиятини тиклаш, кредиторлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва иқтисодий муомала барқарорлигини таъминлашдан иборат. Шу сабабли замонавий қонунчиликда соғломлаштириш механизмларига алоҳида эътибор қаратилган.

Илмий нуқтаи назардан тўловга қобилиятсизликнинг келиб чиқишига ички ва ташқи омиллар таъсир қилади. Ички омилларга нотўғри бошқарув, молиявий режалаштиришдаги камчиликлар, ортиқча харажатлар ва ишлаб чиқариш самарадорлигининг пастлиги киради. Ташқи омилларга эса инфляция, иқтисодий инқироз, бозор рақобати, валюта курсининг ўзгариши ва глобал иқтисодий беқарорлик каби ҳолатлар мисол бўла олади.

Қонунчиликда тўловга қобилиятсизлик аломатлари ҳам аниқ белгилаб берилган. Хусусан, қарздор уч ой давомида ўз мажбуриятларини бажара олмаса, унда тўловга қобилиятсизлик аломатлари мавжуд деб ҳисобланиши мумкин.

Тўловга қобилиятсизлик институтининг муҳим жиҳатларидан бири — санация ва ташқи бошқарув каби соғломлаштириш чораларининг мавжудлигидир. Бу механизмлар орқали иқтисодий аҳволи оғирлашган корхонани тугатмасдан, унинг фаолиятини тиклашга ҳаракат қилинади. Бу эса иш ўринларини сақлаб қолиш ва иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Замонавий ҳуқуқий ислохотлар натижасида Ўзбекистонда жисмоний шахсларни ҳам тўловга қобилиятсиз деб топиш институти жорий қилинди. Бу эса фуқароларнинг қарз муносабатларидаги ҳуқуқий ҳимоясини кучайтиришга хизмат қилмоқда. Ушбу ислохотлар давоми сифатида Иқтисодий судлар томонидан “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2025 йил 23 июндаги 13-сон қарори қабул қилинганлигида кўриш мумкин.

Ушбу Пленум қарорининг асосий мақсади — иқтисодий судлар томонидан “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун нормаларини тўғри ва бир хил қўлланилишини таъминлаш, шунингдек тўловга қобилиятсизлик ишларида иштирок этувчи барча шахсларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборат.

Пленум қарорида судларнинг асосий вазифалари сифатида қуйидагилар кўрсатилган:



- ишларини ҳар томонлама ва ҳолисона кўриб чиқиш;
- тиклаш (санация) тартиб-таомилларини фаол қўллаш;
- ҳуқуқларни суиистеъмол қилиш ҳолатларини бартараф этиш;
- сохта ёки қасддан банкротликни аниқлаш;
- иш юритишнинг барча босқичларида процессуал адолатни таъминлаш.

Шунингдек, Пленум қарорининг мақсади:

- суд амалиётидаги турлича ёндашувларни бартараф этиш;
- кредитор ва қарздор ўртасида манфаатлар мувозанатини таъминлаш;
- тадбиркорлик муҳитини ҳуқуқий жиҳатдан муҳофаза қилиш;
- иқтисодий барқарорликка хизмат қилиш эканлиги ҳам таъкидланган.

Шунингдек, тўловга қобилиятсизлик институти иқтисодиётнинг ажралмас қисми бўлиб, у бозор муносабатларининг барқарор ишлашига хизмат қилади. Мазкур институт орқали бир томондан кредиторлар манфаатлари ҳимоя қилинса, иккинчи томондан молиявий қийин аҳволга тушган субъектларнинг фаолиятини қайта тиклаш имконияти яратилади.

Тўловга қобилиятсизликнинг иқтисодий оқибатлари ҳақида айтилганда, ижобий томонлари, самарасиз корхоналар бозордан чиқади, ресурслар самарали субъектларга ўтади, иқтисодиётда рақобат мустаҳкамланади, салбий томонлари эса ишсизлик ортиши, кредиторлар зарари, ишлаб чиқариш ҳажмининг камайиши, иқтисодий барқарорликка салбий таъсир кўрсатади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда бизнес муҳитини яхшилаш ва тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш мақсадида банкротлик механизмлари такомиллаштирилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, тўловга қобилиятсизлик бозор иқтисодиётининг ажралмас қисми ҳисобланади. У фақат молиявий муаммо эмас, балки ҳуқуқий ва иқтисодий жараён ҳамдир. Ушбу институт кредиторлар ва қарздорлар манфаатлари ўртасида мувозанатни таъминлашга хизмат қилади.

Замонавий иқтисодиётда корхоналар молиявий барқарорликни таъминлаш, хавфларни олдиндан баҳолаш ва самарали бошқарувни йўлга қўйиш орқали тўловга қобилиятсизлик хавфини камайтиришлари мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 2025 йил 23 июндаги 13-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023.



РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Абраев Хасан Чориевич

Судья судебной коллегии
по экономическим делам суда
Сурхандарьинской области

Чориева Дурдона Хасановна

Студент 2 курса
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация: В данной статье исследуются тенденции развития института медиации в Республике Узбекистан, рассматриваются её правовые и практические аспекты. В работе анализируется роль медиации в экономических отношениях, правовые основы, закрепленные Законом «О медиации» от 03.07.2018 года, а также проблемы, возникающие в правоприменительной практике. Особое внимание уделяется совершенствованию механизма принудительного исполнения медиативных соглашений через выдачу исполнительного листа согласно изменениям в Экономическом процессуальном кодексе. Автор обосновывает значимость развития медиации для повышения инвестиционной привлекательности страны и подчеркивает необходимость профессиональной подготовки медиаторов.

Ключевые слова: медиация, медиативное соглашение, разрешение споров, экономические споры, исполнительный лист, Экономический процессуальный кодекс, альтернативные способы разрешения споров (АРС), инвестиционная привлекательность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining rivojlanish tendensiyalari, uning huquqiy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda mediatsiyaning iqtisodiy munosabatlardagi roli, 03.07.2018 yilgi "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan huquqiy asoslar va amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Maqolada mediatsiya kelishuvlarining ijro etilishi bo'yicha mavjud kamchiliklar va Iqtisodiy protsessual kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar orqali mediatsiya kelishuvlariga ijro varaqasi berish mexanizmi joriy etilishining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, investorlar ishonchini oshirish va mediatorlarning professional tayyorgarligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, mediatsiya kelishuvi, muammolarni hal qilish, iqtisodiy nizolar, ijro varaqasi, Iqtisodiy protsessual kodeks, alternativ nizolarni hal etish usullari, investorlar ishonchi.



Abstract: This article explores the development trends of the mediation institution in the Republic of Uzbekistan, examining its legal and practical aspects. The study analyzes the role of mediation in economic relations, the legal framework established by the Law "On Mediation" of 2018, and the challenges encountered in practice. Particular attention is paid to the enhancement of the enforcement mechanism for mediation agreements through the issuance of writs of execution, following amendments to the Economic Procedural Code. The author highlights the importance of mediation in improving the country's investment attractiveness and emphasizes the necessity of professional training for mediators.

Keywords: mediation, mediation agreement, dispute resolution, economic disputes, writ of execution, Economic Procedural Code, alternative dispute resolution (ADR), investment attractiveness.

В современных условиях развития рыночной экономики особое значение приобретает формирование эффективных механизмов разрешения споров между субъектами предпринимательской деятельности. В этой связи возрастает роль альтернативных способов разрешения споров, среди которых медиация занимает особое место.

Медиация представляет собой процедуру урегулирования конфликта при содействии нейтрального посредника — медиатора, основной задачей которого является содействие сторонам в достижении взаимоприемлемого решения. Результатом данной процедуры выступает медиативное соглашение, имеющее особое значение в сфере экономических отношений, поскольку позволяет субъектам предпринимательства самостоятельно определить условия разрешения возникшего спора.

Несмотря на законодательное закрепление института медиации в Республике Узбекистан, практика его применения все еще находится на стадии формирования. Вопросы исполнения медиативных соглашений, профессиональной подготовки медиаторов и повышения доверия к альтернативным способам разрешения споров сохраняют свою актуальность как для национальной правовой системы, так и для экономических отношений в целом.

Основу правового регулирования медиации в Республике Узбекистан составляет Закон Республики Узбекистан «О медиации», принятый 3 июля 2018 года. Указанный закон закрепил основные принципы медиации, порядок её проведения, права и обязанности медиатора, а также требования к медиативному соглашению.

Согласно законодательству, медиативное соглашение представляет собой соглашение сторон, достигнутое в результате применения процедуры медиации. Такое соглашение заключается в письменной форме и должно содержать сведения о сторонах, предмете спора, а также условиях урегулирования конфликта.

Вместе с тем на практике медиативное соглашение длительное время воспринималось как соглашение, исполнение которого зависело преимущественно от добросовестности сторон. Отсутствие эффективных



механизмов обеспечения его реализации снижало уровень доверия к медиации, особенно в сфере экономических споров, где защита имущественных интересов требует устойчивых правовых гарантий.

Данная проблема получила отражение и в научной литературе. В исследовании, посвящённом развитию медиации в Узбекистане, отмечается, что несмотря на наличие законодательной базы, данный институт пока не получил широкого распространения, что связано с недостаточной эффективностью его практического применения и низким уровнем доверия со стороны участников экономических отношений.

Кроме того, исследователи подчеркивают, что ключевым условием эффективности медиации является наличие механизмов, обеспечивающих исполнение достигнутых соглашений, а также высокий уровень профессиональной подготовки медиаторов.

В последние годы законодательство Республики Узбекистан претерпело ряд существенных изменений, направленных на совершенствование института медиации. Существенные изменения были внесены в Экономический процессуальный кодекс Республики Узбекистан, в соответствии с которыми была предусмотрена возможность принудительного исполнения медиативных соглашений.

Согласно новым положениям, в случае добровольного неисполнения медиативного соглашения заинтересованная сторона вправе обратиться в экономический суд с заявлением о выдаче исполнительного листа. Таким образом, медиативное соглашение получает дополнительную правовую обеспеченность, что существенно повышает его практическую значимость в сфере экономических отношений.

Следует отметить, что данные изменения направлены не только на защиту имущественных интересов сторон, но и на повышение инвестиционной привлекательности государства. Для иностранных инвесторов важным фактором является наличие эффективных и предсказуемых механизмов урегулирования споров без необходимости длительных судебных разбирательств.

Одним из важнейших направлений развития медиации в Республике Узбекистан является повышение требований к профессиональной подготовке медиаторов.

На ранних этапах развития законодательства допускалось участие в процедуре медиации лиц, не обладающих специальной профессиональной подготовкой. Такой подход объяснялся стремлением обеспечить широкое распространение медиации и сделать процедуру более доступной.

Однако правоприменительная практика показала, что отсутствие единых профессиональных требований негативно влияет на качество медиативных процедур и уровень доверия к медиаторам. В экономических спорах, связанных со значительными имущественными интересами, стороны заинтересованы в участии компетентного посредника, обладающего не только



знаниями законодательства, но и навыками ведения переговоров, урегулирования конфликтов и деловой коммуникации.

В связи с этим в законодательство были внесены изменения, направленные на профессионализацию института медиаторов. В настоящее время особое значение имеет прохождение специальной подготовки и получение соответствующего сертификата медиатора.

Данный подход соответствует международной практике. В большинстве зарубежных государств медиация рассматривается как профессиональная деятельность, требующая специального обучения и соблюдения профессиональных стандартов.

В Казахстане институт медиации получил развитие значительно раньше, чем в Узбекистане. Основным нормативным актом является Закон Республики Казахстан «О медиации» от 28 января 2011 года.

Особенностью казахстанской модели является более высокая степень институционализации медиации. Законодательство Казахстана предусматривает разделение медиаторов на профессиональных и непрофессиональных. Вместе с тем именно профессиональные медиаторы получили наибольшее распространение на практике.

Кроме того, в Казахстане активно применяется судебная медиация. Суды нередко содействуют сторонам в переходе к медиативной процедуре, что способствует снижению нагрузки на судебную систему и ускоряет разрешение экономических споров.

Важным преимуществом казахстанской модели является более устойчивая практика исполнения медиативных соглашений. В результате медиация воспринимается субъектами предпринимательства как реальный и эффективный механизм защиты интересов.

Особый интерес представляет опыт европейских государств, где институт медиации получил широкое распространение в сфере коммерческих и экономических споров.

Развитие медиации в странах Европы осуществляется в том числе на основе положений Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council on mediation in civil and commercial matters, направленной на расширение применения альтернативных способов разрешения споров.

В Латвии для осуществления деятельности медиатора требуется прохождение специальной подготовки и включение в официальный реестр медиаторов. Аналогичные подходы применяются и в ряде других государств Европы.

Европейская модель медиации характеризуется несколькими особенностями: высокой степенью профессионализации медиаторов, активной поддержкой со стороны государства, тесной связью с судебной системой и устойчивой практикой применения медиативных процедур.

Кроме того, во многих европейских странах суды активно рекомендуют сторонам использовать медиацию до начала полноценного судебного



разбирательства. В отдельных случаях отказ от медиации может учитываться судом при распределении судебных расходов.

Исследователи отмечают, что эффективность медиации в европейских странах обусловлена не только законодательным регулированием, но и высоким уровнем правовой культуры, а также сформированным доверием общества к альтернативным механизмам разрешения споров.

Несмотря на положительные изменения законодательства, практика применения медиации в Республике Узбекистан пока остается ограниченной.

Одной из основных проблем является недостаточная информированность субъектов предпринимательства о возможностях медиации. Многие участники экономических отношений по-прежнему рассматривают судебное разбирательство как единственный способ защиты своих прав.

Кроме того, определенные сложности вызывает недостаточная сформированность правоприменительной практики в сфере исполнения медиативных соглашений. Для полноценного функционирования института медиации необходима не только законодательная база, но и стабильная практика её применения.

Важное значение имеет и дальнейшее развитие системы подготовки медиаторов. В условиях роста экономических споров повышаются требования к уровню профессионализма медиаторов и качеству медиативных процедур.

Вместе с тем развитие института медиации обладает значительным потенциалом. Использование медиативных процедур способствует снижению нагрузки на суды, ускорению разрешения конфликтов, уменьшению финансовых издержек сторон и сохранению деловых отношений между субъектами предпринимательства.

Проведённый анализ показывает, что медиативное соглашение в экономических спорах в Республике Узбекистан постепенно трансформируется в полноценный механизм урегулирования конфликтов.

Принятие Закона Республики Узбекистан «О медиации» и последующие изменения, внесённые в Экономический процессуальный кодекс Республики Узбекистан, существенно усилили правовой статус медиативных соглашений и создали предпосылки для более широкого применения медиации в экономической сфере.

Сравнительный анализ с зарубежными правовыми системами, включая Казахстан и европейские государства, показывает, что дальнейшее развитие института медиации должно быть связано не только с совершенствованием законодательства, но и с формированием устойчивой практики применения медиативных процедур, повышением уровня правовой культуры и укреплением доверия со стороны бизнеса.

Таким образом, медиативное соглашение обладает значительным потенциалом как эффективный инструмент разрешения экономических споров, обеспечивающий баланс интересов сторон, снижение судебной нагрузки и повышение инвестиционной привлекательности государства.



Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О медиации» № ЗРУ-482 от 03.07.2018г.
2. Экономический процессуальный кодекс Республики Узбекистан.
3. Гражданский процессуальный кодекс Республики Узбекистан.
4. Аристов В.В. Альтернативные способы разрешения споров в предпринимательской деятельности: учебное пособие. – М.: Юрист, 2021.
5. Козырев А.Н. Правовые основы медиации и их роль в обеспечении стабильности гражданского оборота // Вестник юридических наук. – 2022. – № 2. – С. 15-22.
6. Савостьянов С.В. Проблемы принудительного исполнения медиативных соглашений в современных правовых системах // Право и экономика. – 2020. – № 4. – С. 30-35.
7. Ибрагимова Г.Р. Совершенствование механизмов защиты прав субъектов предпринимательства через институт медиации // Юридический вестник Узбекистана. – 2023. – № 1. – С. 12-18.
8. World Bank Report. Alternative Dispute Resolution (ADR) and Investment Attractiveness in Emerging Markets. – Washington, D.C., 2021.



МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАР ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Болтаев Аслиддин Азимович,
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур тезисда суд-ҳуқуқ ислоҳотлари шароитида маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг ҳуқуқий мақомини такомиллаштириш масалалари таҳлил қилинади. Маъмурий судловга тааллуқли ишлар тоифаларининг кенгайиши, давлат органлари қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги устидан суд назорати, инвестиция ва рақобат низолари, шунингдек маъмурий ҳужжатларни судгача кўриб чиқиш институтининг аҳамияти ёритилади. Тарафлар ҳуқуқларини самарали қафолатлаш учун процессуал тенглик, ошқоралик, муддатларнинг аниқлиги ва судгача ҳимоя механизмларининг суд назорати билан уйғунлиги зарурлиги асосланади.

Калит сўзлар: маъмурий судлов, тарафлар, процессуал мақом, маъмурий ҳужжат, апелляция кенгаши, судгача тартиб, янги очилган ҳолатлар, процессуал қафолат.

Маъмурий суд ишларини юритишнинг асосий иштирокчилари ҳисобланган тарафлар маъмурий адлия тизимида марказий ўринни эгаллайди. Давлат органи ёки мансабдор шахснинг қарори, ҳаракати ёхуд ҳаракатсизлиги хусусий шахснинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига таъсир қилганида низони ҳал қилиш жараёнида тарафларнинг процессуал имкониятлари ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Шу боис маъмурий судловни ривожлантириш фақат судлар ваколатини кенгайтиришдан иборат эмас, балки фуқаролар ва юридик шахсларнинг суддаги ҳуқуқий мақомини реал қафолатлар билан таъминлашни ҳам назарда тутаяди.

Ўзбекистон Республикасида маъмурий судлов соҳасидаги ислоҳотлар Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг қабул қилиниши билан янги босқичга кўтарилди. Кодекс дастлаб маъмурий судларга тааллуқли ишларни муайян тоифалар асосида белгилаган бўлса, кейинги йилларда ҳуқуқий муносабатларнинг мураккаблашуви туфайли ушбу доира кенгайди. Хусусан, инвестициявий низолар, рақобат соҳасидаги низолар, мажбурий ундириш ҳужжатлари устидан шикоятлар каби янги йўналишлар маъмурий судловнинг амалий аҳамиятини янада оширди.

Кодекснинг 27-моддасида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, давлат бошқаруви органлари, маъмурий-ҳуқуқий фаолиятни амалга оширувчи бошқа органлар ва улар



мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги устидан низолашиш имконияти назарда тутилган. Ушбу нормалар тарафлар ҳуқуқий мақомининг асосий кафолати бўлиб, фуқаро ёки юридик шахсга оммавий ҳокимият билан тенг процессуал майдонда ўз позициясини ҳимоя қилиш имконини беради.

Тарафлар ҳуқуқий мақомини такомиллаштиришда **биринчи устувор йўналиш** – процессуал тенгликни амалда таъминлашдир. Маъмурий низоларда бир тараф, одатда, давлат органи бўлгани сабабли, ахборот, ҳужжатлар ва далилларга эгалик қилиш имкониятида номутаносиблик юзага келади. Шунинг учун суд ишни кўриш жараёнида маъмурий орган зиммасига қарор қабул қилиш асослари, далиллар ва тартиб-таомилларга риоя этилганлигини исботлаш бўйича фаол мажбурият юклаши лозим. Бу фуқаро ёки тадбиркорнинг процессуал жиҳатдан заиф ҳолатга тушиб қолишининг олдини олади.

Иккинчи устувор йўналиш маъмурий судловда иш тоифаларини аниқ тизимлаштириш билан боғлиқ. Маъмурий судловга тааллуқли ишларнинг кўпайиши ижобий ҳолат бўлса-да, уларнинг процессуал хусусиятлари бир хил эмас. Масалан, сайлов комиссиялари фаолиятига оид низолар тезкорликни, инвестиция низолари шартномавий ва оммавий-ҳуқуқий элементларни биргаликда баҳолашни, рақобат низолари эса махсус иқтисодий билимларни талаб қилади. Шу сабабли ҳар бир иш тоифаси бўйича тарафлар ҳуқуқ ва мажбуриятларининг амалий механизмини янада аниқлаштириш мақсадга мувофиқ.

Учинчи устувор йўналиш маъмурий ҳужжатларни судгача кўриб чиқиш институтини ривожлантиришдан иборат. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 майдаги ПҚ-188-сон қарори билан Тошкент шаҳрида давлат хизматлари юзасидан қабул қилинган маъмурий ҳужжатларни судгача кўриб чиқиш бўйича ҳуқуқий эксперимент жорий этилди. Эксперимент доирасида манфаатдор шахслар апелляция кенгашларига мурожаат қилиш орқали бузилган ҳуқуқларини судгача ҳимоя қилиш имкониятига эга бўлди. Бу институт тарафлар учун тезкор, кам харажатли ва мослашувчан ҳимоя воситаси сифатида аҳамиятлидир.

Шу билан бирга, судгача тартиб тарафларнинг судга мурожаат қилиш ҳуқуқини чекламаслиги шарт. Апелляция кенгаши қарорларининг ошкоралиги, мустақиллиги ва асослантирилганлиги таъминланса, у маъмурий органлар фаолиятини ички назорат қилишнинг самарали воситасига айланади. Бироқ бундай механизм фақат суд назорати билан уйғун ҳолда ишлагандагина ҳуқуқий кафолат сифатида баҳоланади. Шу маънода, судгача кўриб чиқиш ихтиёрийлиги ва кейинчалик суд тартибида шикоят қилиш имконияти сақланиши тарафлар мақомининг муҳим белгисидир.

Тўртинчи устувор йўналиш янги очилган ҳолатлар бўйича суд ҳужжатларини қайта кўриш институтини такомиллаштиришдир. Олий суд Пленумининг 2025 йил 29 апрелдаги қарори мазкур институтни қўллаш тартибини аниқлаштиради. Тарафлар ва уларнинг ҳуқуқий ворислари қонуний



кучга кирган суд ҳужжати қайта кўриш тўғрисида ариза бериш ҳуқуқига эга. Бунда янги очилган ҳолатлар суд ҳужжати қабул қилинган пайтда мавжуд бўлган, аммо аризаچига маълум бўлмаган ва маълум бўлиши мумкин бўлмаган ҳолатлар сифатида талқин қилинади.

Мазкур институтнинг аҳамияти шундаки, у суд хатосини эмас, балки суд ҳулосасига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган янги маълум бўлган ҳолатларни баҳолашга қаратилган. Шу сабабли тарафлар учун ариза бериш муддатлари, асосларининг тугал рўйхати ва янги далил билан янги очилган ҳолат ўртасидаги фарқ аниқ тушунтирилиши лозим. Амалиётда айнан шу масаладаги ноаниқликлар тарафларнинг процессуал ҳуқуқларидан тўлиқ фойдаланишига тўсқинлик қилиши мумкин.

Бешинчи устувор йўналиш хорижий тажрибани миллий хусусиятлар билан уйғунлаштиришдир. Германияда маъмурий ҳуқуқ соҳасида низолар алоҳида тоифаларга қатъий ажратилмасдан, умумий маъмурий судлов мандати доирасида кўриб чиқилади [1]. Россия ҳуқуқшунослари эса маъмурий судловнинг мустақил процессуал табиатини, хусусий ва оммавий манфаатлар мувозанатини, шунингдек маъмурий-процессуал нормаларни кодификация қилиш масалаларини турлича баҳолайдилар [2]. Бу ёндашувлар Ўзбекистонда маъмурий судловни ривожлантиришда механик кўчириш эмас, балки танқидий таҳлил асосида қўллаш зарурлигини кўрсатади.

Олтинчи устувор йўналиш маъмурий судловда рақамли технологиялардан фойдаланиш орқали тарафларнинг процессуал имкониятларини кенгайтиришдир. Маъмурий органлар ҳужжатлари, апелляция кенгашлари қарорлари ва суд муҳокамасига оид маълумотларни электрон шаклда тақдим этиш тарафлар учун вақт ва харажатларни камайтиради. Бироқ рақамлаштириш фақат техник қулайлик сифатида эмас, балки процессуал тенгликни таъминловчи восита сифатида қаралиши лозим. Электрон тизимда ҳужжатларни қабул қилиш вақти, уларнинг юборилганлиги ва кўриб чиқилганлиги аниқ қайд этилса, муддатлар билан боғлиқ низолар камаяди ҳамда маъмурий органнинг жавобгарлиги ошади.

Еттинчи устувор йўналиш маъмурий суд ишларини юритишда қонунчилик коллизияларини бартараф этишга қаратилган. Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги қонунчилик ва маъмурий суд ишларини юритиш қоидалари бир-бирига яқин соҳалар бўлса-да, уларнинг предмети ва вазифаси фарқ қилади. Биринчиси маъмурий жавобгарликни, иккинчиси эса оммавий-ҳуқуқий низоларни судда кўриш тартибини белгилайди. Шу сабабли тарафларнинг процессуал мақоми тўғрисидаги нормаларда тушунчалар бирхиллиги, мурожаат шакли, далилларни тақдим этиш тартиби ва суд ҳужжатларини қайта кўриш асослари ўзаро мувофиқлаштирилиши зарур.

Хулоса қилиб айтганда, маъмурий суд ишларини юритишда тарафлар ҳуқуқий мақомини такомиллаштириш суд-ҳуқуқ ислохотларининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Бу борада процессуал тенгликни реал таъминлаш, маъмурий иш тоифаларини аниқлаштириш, судгача кўриб чиқиш механизмларини суд назорати билан боғлаш, янги очилган ҳолатлар бўйича



кайта кўриш тартибини амалиётга мослаштириш ва хорижий тажрибани миллий шароитда қайта ишлаш асосий вазифалар сифатида намоён бўлади. Ушбу йўналишлар амалга оширилса, маъмурий судлов фуқаролар ва юридик шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг янада самарали, шаффоф ва ишончли воситасига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 майдаги ПҚ-188-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.05.2025 й., 07/25/188/0455-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2025 йил 29 апрелдаги 9-сон қарори. <https://lex.uz/docs/7526613>.
4. Гаврюшов Н.Е. Проблема разграничения частных и публичных правоотношений в административном судопроизводстве // Арбитражный и гражданский процесс. 2019. № 3. – С. 36–40.
5. Лупарев Е.Б. Поддержание баланса личных и публичных интересов в сфере государственного управления // Административное право и процесс. 2015. № 11. – С. 49–52.
6. Приженникова А.Н. Проблемы формирования современной модели административного судопроизводства в России // Административное и муниципальное право. 2013. № 6. – С. 673–679.
7. Татаров Л.А. Административное судопроизводство и его регулирование в Российской Федерации // Закон и право. 2020. № 4.
8. Кулюшин Е.Н. В поисках оптимальной модели административного судопроизводства: историографический обзор // Арбитражный и гражданский процесс. 2019. № 5. – С. 44–48.



ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАР ИШТИРОКИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

Болтаев Аслиддин Азимович,
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси
мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур тезисда хорижий мамлакатларда маъмурий суд ишларини юритишда тарафлар иштирокининг процессуал хусусиятлари таҳлил қилинади. АҚШ, Германия, Буюк Британия, Франция ва Хитой тажрибаси мисолида маъмурий низоларда фуқаро ёки юридик шахс билан маъмурий орган ўртасидаги процессуал мувозанат, судга мурожаат қилиш ҳуқуқи, жавобгар субъектни белгилаш, учинчи шахслар иштироки ва судгача шикоят механизмларининг аҳамияти ёритилади. Хорижий тажриба асосида Ўзбекистон маъмурий судловида тарафларнинг реал тенглигини таъминлаш ва процессуал кафолатларни кучайтириш бўйича ҳулосалар илгари сурилади.

Калит сўзлар: маъмурий судлов, тарафлар, аризачи, жавобгар, маъмурий орган, хорижий тажриба, суд ҳимояси, процессуал тенглик, трибунал, маъмурий адлия.

Фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини суд орқали ҳимоя қилиш ҳар қандай демократик ҳуқуқий давлатнинг асосий белгиларидан бири ҳисобланади. Маъмурий суд ишларини юритишда ушбу масала янада долзарб тус олади, чунки низонинг бир тарафида одатда ҳокимият ваколатларига эга маъмурий орган ёки мансабдор шахс иштирок этади. Шу боис маъмурий судловда тарафларнинг ҳуқуқий мақоми фақат формал тенглик билан чекланмаслиги, балки давлат органи ва хусусий шахс ўртасидаги амалий номуносивбликни бартараф этишга хизмат қилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддасида ҳар кимга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органлари ҳамда бошқа ташкилотлар, улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланган. Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 40-моддаси эса суд жараёнида иштирок этувчи асосий тарафлар сифатида аризачи ва жавобгарни белгилайди. Аризачи ўз ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун талаб тақдим этувчи шахс бўлса, жавобгар ариза талаби қаратилган маъмурий орган, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи ёки мансабдор шахс ҳисобланади.

Маъмурий суд ишларида аризачи сифатида нафақат фуқаролар, балки юридик шахслар, хорижий ташкилотлар, халқаро ташкилотлар, жамоат ва диний ташкилотлар ҳам иштирок этиши мумкин. Жавобгар сифатида эса



давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, сайлов комиссиялари, нотариал ҳаракатлар ёки фуқаролик ҳолати далолатномалари билан боғлиқ ваколатли органлар қатнашади. Бу ҳолат маъмурий судловда тарафлар доирасининг кенглиги ва ҳар бир иш тоифасида процессуал мақомни тўғри белгилаш зарурлигини кўрсатади.

Хорижий мамлакатлар тажрибаси маъмурий судловда тарафларнинг иштирокини ташкил этиш борасида турли моделлар мавжудлигини кўрсатади. Умумий ёндашув шундан иборатки, маъмурий адлиянинг асосий вазифаси фуқарони давлат ҳокимиятининг ноқонуний ёки асоссиз аралашувидан ҳимоя қилишдир. Давлат органи ҳуқуқий муносабатларда кучли субъект сифатида ҳаракат қилгани сабабли, суд жараёнида унинг устунлиги компенсацион процессуал механизмлар орқали оқилона чекланиши керак.

АҚШда маъмурий иш юритиш Administrative Procedure Act асосида шаклланган бўлиб, ушбу қонун федерал агентликларнинг регламентлар қабул қилиш, рухсатнома ва лицензиялар бериш, шунингдек маъмурий қарорлар қабул қилиш тартибини белгилайди. АҚШ моделида маъмурий ҳуқуқ моддий ва процессуал қоидаларни биргаликда қамраб олади. Маъмурий ҳуқуқ судьялари ва махсус органлар агентликлар қарорлари устидан назоратни амалга оширади. Бу тизимда тарафлар иштирокининг муҳим жиҳати шундаки, аризалар айрим ҳолларда судгача босқичда кўриб чиқилиши ва кейин суд назоратига олиб чиқилиши мумкин.

АҚШ тажрибаси маъмурий судловда процессуал адолат ва *“due process”* тамойилининг устуворлигини кўрсатади. Ҳаёт, озодлик ёки мулкдан маҳрум қилиш фақат қонуний тартиб асосида амалга оширилиши мумкинлиги тўғрисидаги конституциявий талаб маъмурий органлар учун ҳам мажбурийдир. Шу сабабли маъмурий қарорлар қабул қилишда шахсни эшитиш, далилларни тақдим этиш, қарорни асослантириш ва кейинчалик судга шикоят қилиш имконияти тарафлар процессуал мақомининг муҳим элементлари ҳисобланади.

Германия маъмурий адлияси хорижий тажрибада энг ривожланган моделлардан бири сифатида баҳоланади. Германияда маъмурий суд ишларини юритишда диспозитивлик принципи амал қилади, яъни ҳуқуқи бузилган шахс судга мурожаат қилиш ташаббусини ўзи амалга оширади. Бироқ суд жараёнида даъвогар ва жавобгарнинг ҳуқуқий тенглиги фақат номигагина эмас, балки процессуал кафолатлар орқали таъминланади. Даъвогар сифатида, одатда, хусусий шахс, жавобгар сифатида эса давлат ёки давлат ваколатлари берилган субъект иштирок этади.

Германияда маъмурий суд жараёни иштирокчилари қаторига даъвогар, жавобгар, ишга жалб этилган учинчи шахслар, шунингдек айрим ҳолларда давлат манфаатлари вакиллари киради. Учинчи шахслар институти маъмурий низоларнинг оммавий-ҳуқуқий табиати билан боғлиқ бўлиб, суд қарори кенг шахслар доираси манфаатларига таъсир қилиши мумкин бўлган ҳолларда алоҳида аҳамият касб этади. Масалан, қурилишга рухсат бериш ҳақидаги



низода мулкдор, қўшни ва маъмурий орган манфаатлари бир вақтда тўқнашиши мумкин.

Германия тажрибасининг яна бир муҳим жиҳати жавобгар субъектни аниқ белгилаш билан боғлиқ. Маъмурий органнинг ноқонуний ҳужжати ёки ҳаракати устидан даъво қайси орган ёки қайси публич-ҳуқуқий тузилмага нисбатан берилиши масаласи қонунчиликда аниқ тартибга солинади. Бу тарафларнинг процессуал мақоми ва суд ҳужжатининг ижросини таъминлаш учун муҳимдир. Ўзбекистон амалиётида ҳам ишга дахлдор бўлмаган жавобгарни алмаштириш институтини янада самарали қўллаш маъмурий низоларни тез ва адолатли ҳал қилишга хизмат қилади.

Буюк Британияда маъмурий адлия тизими умумий судлар билан бир қаторда ихтисослашган трибуналлар фаолиятига таянади. Трибуналлар фуқаролар ва маъмурий органлар ўртасидаги айрим тоифадаги низоларни кўриб чиқадиган квази-суд органлари сифатида шаклланди. Бундай модель ишларни соҳавий ихтисослашув асосида тезкор кўриб чиқишга имкон беради. Шу билан бирга, трибуналлар қарорлари суд назоратидан бутунлай холи эмас, юқори судлар уларнинг қонунийлигини текшириши мумкин.

Буюк Британия модели маъмурий низоларда тарафлар иштирокининг функционал ёндашувга асосланганлигини намоён этади. Яъни низо муайян соҳа – миграция, ижтимоий таъминот, солиқ, лицензиялаш ёки бошқа маъмурий муносабатлардан келиб чиқса, уни кўриб чиқиш учун махсус билимга эга орган жалб қилинади. Бу Ўзбекистон учун ҳам аҳамиятли хулоса беради: маъмурий судларда инвестиция, рақобат, солиқ ва давлат хизматлари билан боғлиқ ишларни кўришда судьялар ихтисослашуви ва экспертлик ёрдами кучайтириш зарур.

Хорижий тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, маъмурий судловда тарафларнинг процессуал мақоми уч асосий омил орқали таъминланади. **Биринчидан**, судга мурожаат қилиш ҳуқуқи реал ва амалий бўлиши керак. **Иккинчидан**, маъмурий органнинг далиллар ва маълумотларга эгалик қилишдаги устунлиги суд томонидан компенсация қилиниши лозим. **Учинчидан**, суд ҳужжати ижроси ва маъмурий органнинг жавобгарлиги аниқ механизмлар билан кафолатланиши зарур.

Ўзбекистон маъмурий судлови учун хорижий моделларнинг барчасини бир хилда қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмас. АҚШ тажрибасидан маъмурий тартиб-таомилларнинг очиқлиги ва шахсни эшитиш кафолатини, Германиядан жавобгар субъектни аниқ белгилаш ва учинчи шахслар иштирокини, Буюк Британиядан ихтисослашган трибуналлар ва соҳавий ёндашувни, Франциядан маъмурий адлиянинг мустақиллигини, Европа стандартларидан эса адолатли суд муҳокамаси кафолатларини ўрганиш мумкин. Бироқ ҳар бир ёндашув миллий ҳуқуқ тизими, судлар салоҳияти ва маъмурий бошқарув анъаналари билан уйғунлаштирилган ҳолда татбиқ этилиши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий мамлакатларда маъмурий суд ишларини юритишда тарафлар иштирокининг хусусиятлари маъмурий орган ва хусусий шахс ўртасидаги ҳуқуқий мувозанатни таъминлашга қаратилган.



Ўзбекистонда маъмурий судловни такомиллаштиришда тарафларнинг формал тенглигини реал процессуал кафолатлар билан тўлдириш, ишга дахлдор жавобгарни аниқлаш, учинчи шахслар иштирокини самарали ташкил этиш, судгача шикоят механизмларини суд назорати билан боғлаш ҳамда судьялар ихтисослашувини кучайтириш устувор аҳамиятга эга. Ана шу йўналишлар маъмурий адлияни фуқаро ва тадбиркорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи самарали институтга айлантиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2018 й., 02/18/МПК/0627-сон.
3. Соловьёв А.А. Общая характеристика правового положения сторон административного судопроизводства // Административное право и практика администрирования. 2018. № 1. – С. 33–43.
4. Козырин А.Н. Административное право зарубежных стран. – М.: Спартак, 1996. – 229 с.
5. Schotel B. Administrative Law as a Dual State. Authoritarian Elements of Administrative Law // Hague Journal on the Rule of Law. 2021. Vol. 13. – P. 195–222.
6. Слепченко В.А. Некоторые аспекты административной юстиции в зарубежных странах и в России // Вопросы российской юстиции. 2020. № 5. – С. 250–261.



ФИЛОСОФИЯ ОДИНОЧЕСТВА ХОНДЖОК КАК ФЕНОМЕН В
ЮЖНОЙ КОРЕЕ

Когай Татьяна Евгеньевна., MSc

Университет Пучон в г.Ташкент

Старший преподаватель

корейского языка

кафедры филологии

tatyanakogay22@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Данный тезис раскрывает проблему современного мира, больших мегаполисов на примере Южной Кореи. Эта проблема, которая породила целую современную философию одиночества – Хонджок. И которая затрагивает нечто глубокое нежели обычный быт, а душу народа и даже индустрию общепита, индустрию мебели, демографию и семейные ценности. В тезисе описываются истоки ее порождения, из чего она состоит и меры предотвращения со стороны правительства Южной Кореи.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Хонджок, одиночество, философия, феномен, современное общество, демография, Южная Корея.

Современное южнокорейское общество переживает одно из самых глубоких сдвигов в демографической и социокультурной сфере. Одно из них это хонджок. В свое время этот феномен изучал Бынг-Чхоль Хан(2014) и Кристал(2020), они подробно описали хонджок в своих работах.

Слово **хонджок** (혼죽) – неологизм, который приблизительно образовался с 2010 года, означает культуру одиноких людей. Само слово произошло из “один” или “одинокий” Хондя(혼자), окончание на Джок(죽) в свою очередь означает клан, семья или группа людей.

Хонджок это поколение людей в Южной Кореи, которые осознанно выбрали жить одни, не создавая семей. Общество и мегаполисы давят на современную молодежь, и чтобы найти уединение и спокойствие в себе люди выбирают эту философию. Люди, которые придерживаются этой философии живут одни, могут ходить в рестораны в одиночку, выпивать после работы в одиночку и проводить свой досуг в одиночку. Люди, которые выбрали уединение во всех сферах жизни породили этот новый феномен как хонджок. И вслед за этой философией пришла новая субкультура как хонбап, хонсульт, хонъён, хонъё.

Хонбап (혼밥) — практика одиночного приема пищи (в ответ на которую рестораны Сеула стали массово внедрять одиночные кабинки). Хонсульт (혼술) — употребление алкоголя в одиночестве с целью рефлексии и снятия стресса без социального давления. Хонъён (혼영) — одиночные походы в кинотеатры. Хонъё (혼여) — одиночные путешествия.



Телевизионные программы подстроились под такую субкультуру и вышли передачи «Живу один», «Путешествие в одиночку». Очень популярно также Мокпанг – шоу, поедания еды на камеру. Люди, которые едят в одиночку увеличиваются, и для них придумали данное шоу, чтобы они не чувствовали себя одинокими смотря шоу Мокпанг. Производители мебели создают мебель для одного человека, тем самым повышая возможность их продать.

Был ли вынужден или нет этот выбор, но вызывает этот феномен хонджок низкую демографию в Южной Корее, и смерть в одиночестве стала частым явлением. За последнее время коэффициент рождаемости по стране составляет 0,71-0,8 ребенка на одну женщину при необходимости 2,1 для поддержания численности населения. Также стоит проблема одиноких смертей, одинокие люди оканчивают жизнь в одиночестве, и в последний момент их жизни, нет того кто может им помочь или проводить в последний путь.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В ответ на падение демографии правительство Южной Кореи разработало программы по помощи молодых семей, беременных и поддержку одиноких престарелых. Беременной женщине выдают пособие, которое она может потратить в медицинских учреждениях. Родившая женщина может получить единовременное пособие до 7 миллионов на одного ребенка, это \$5,500, при условии, если является гражданкой Ю.Кореи. А в некоторых городах при заключении брака молодоженам также выдают денежные пособия для поддержки и стимуляции молодых семей. Но для того, чтобы улучшить демографическое положение, которое за собой повлечет экономические проблемы, необходимо разработать агитационные программы по смене мышления, что семья и дети не являются чем-то страшным и матери одиночки не являются предметом усмешки в современном обществе.

А для людей в возрасте, государство предоставляет дома престарелых в случае, если есть государственная страховка. Но проблема еще не решена полностью и стоит ее преодолеть, несмотря на то что Ю. Корея достаточно развитая страна во всему миру.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кристал Д.К., Фрэнсис Чэ. Искусство жить в одиночестве – Лондон: Welbeck, Publishing Group, 2020.
2. Бынг-Чхоль Хан., Общество усталости – Берлин: Matthes and Seitz, 2014
3. Ли Чжон., Философия корейских воинов – Сеул: Хуманист, 2017
4. Эни Сух., Нунчи корейский секрет эмоционального интеллекта – Лондон: Cornestone, 2019.
5. Ким Хен Сок., A theory of Happiness: Lessons from a 100-year-old Korean Philosopher., – Лондон: The Dialogue Terrace, 2024.
6. Пек Се Хи., I want to Die but I Want to Eat Tteokbokki – Сеул: Heun, 2018.
7. Ли Джин Ву., Philosophy on the Road – Сеул: Хуманист, 2016.
8. Дэниел Тюдор., Невозможная Корея – Токио: Tuttle Publishing, 2012.
9. Рандо Ким., Ты молод поэтому тебе трудно – Сеул: Мирай Вей Исаи, 2010.



10. И.Касаткина., А.Войцехович. Корея Коротко о главном – Москва: Издательство АСТ, 2010.



**МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИ МЕДИАДИСКУРСИ ВА
ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИ ШАКЛЛАНИШИ**

Ортиқхўжа Исроилович НОРОВ,

Олий Мажлис ҳузуридаги

Фуқаролик жамияти институтларини

қўллаб-қувватлаш жамоат фонди матбуот котиби

Email: oin.uzb@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Мазкур тезисда меҳнат миграцияси мавзусининг Россия ва Ўзбекистон интернет оммавий ахборот воситаларида ёритилиши, қўлланилаётган дискурсив стратегиялар ҳамда уларнинг жамоатчилик фикрига таъсири таҳлил қилинади. Тадқиқот медиа фреймлар, сарлавҳалар, манба танлови ва лексик воситалар орқали меҳнат мигрантлари образининг шаклланиш механизмларини очиб беради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: меҳнат миграцияси, медиа дискурс, фрейминг, жамоатчилик фикри, меҳнат мигранти образи, онлайн ОАВ, дискурсив стратегия.

Меҳнат миграцияси ҳақидаги медиа дискурс фақат ахборот узатиш вазифасини бажарибгина қолмай, балки жамоатчилик онгида мигрант шахси, унинг ижтимоий ва ҳуқуқий мақоми ҳақида муайян тасаввурларни шакллантиради. Шу маънода ОАВда қўлланиладиган фреймлар, сарлавҳалар ва лексик бирликлар жамоатчилик муносабатига бевосита таъсир кўрсатади.

Тадқиқот натижаларига кўра, Россия интернет ОАВда меҳнат миграцияси мавзуси кўп ҳолларда хавфсизлик, қонунбузарлик ва “беғоналар”– “ўзимизникилар” қарама-қаршилиги доирасида ёритилади. Бундай ёндашув мигрантлар образининг салбий стереотиплар асосида шаклланишига олиб келади.

Масалан, Россиядаги энг кенг аудиторияга эга Интернет нашрларидан бири бўлган “РИА Новости” материаллари таҳлили (2020–2024) мигрантлар ҳақидаги ёритишда нисбатан аралаш тоналлик мавжудлигини кўрсатади: ижобий (56,8%), салбий (29,5%) ва бетараф (13,6%) контент улуши қайд этилган. Шу билан бирга, сарлавҳаларда “ноқонуний”, “хавф”, “таҳдид” каби лексик бирликлар кўп қўлланилиб, бу аудиторияда хавотир дискурсини кучайтиради [1].

Ўзбекистон Интернет ОАВда, жумладан “Kun.uz” мисолида, 2023–2025 йилларда меҳнат миграцияси мавзуси бўйича материаллар сони кескин ошган. Бироқ таҳлиллар ушбу контентнинг асосан янгилик жанрида бўлиб, чуқур таҳлилий ёндашув камлигини кўрсатади [2].

Фрейминг таҳлили натижаларига кўра, материалларнинг катта қисми “муаммо фрейми” доирасида ёритилган бўлиб, миграция кўпроқ хавф,



ҳуқуқий қийинчилик ва назорат объекти сифатида талқин қилинган. “Имконият фрейми” улуши нисбатан паст.

ОАВ фойдаланган манбалар таркибида давлат органларига таяниш устун бўлиб, бу таҳлил ва альтернатив нуқтаи назарлар камлигини англатади. Жанр жиҳатдан эса тезкор янгилик формати устунлик қилади (87,5%), бу эса дискурсив чуқурликни чеклайди.

Социологик сўровнома натижаларига кўра, респондентларнинг 83% медиа контент жамоатчилик фикрига таъсир кўрсатишини тан олган. Шу билан бирга, кўпчилик ахборотни маҳаллий интернет нашрларидан олади (51%), бу эса маҳаллий медианинг таъсир кучини кўрсатади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Россия медиасида мигрантлар кўп ҳолларда потенциал хавф манбаи сифатида рамкаланса, Ўзбекистон медиасида улар кўпроқ институционал ва иқтисодий ресурс сифатида ёритилади. Бироқ ҳар икки ҳолатда ҳам мигрантнинг шахсий тажрибаси, ижтимоий интеграцияси ва инсон омили етарлича акс этмайди.

Шунингдек, хорижий медиадаги материалларнинг маҳаллий нашрларда таржима қилиниб қайта эълон қилиниши ҳам дискурснинг бир хиллашувига ва стереотипларнинг кучайишига олиб келиши мумкин.

Меҳнат миграцияси мавзусини ёритишда қўлланилаётган дискурсив стратегиялар жамоатчилик фикри шаклланишида муҳим омил ҳисобланади. Тадқиқот натижаларига кўра, медиада фреймлар, сарлавҳалар, манба танлови ва лексик воситалар мигрант образининг ижобий ёки салбий қабул қилинишига бевосита таъсир кўрсатади.

Шу боис, медиада мувозанатли ёндашувни кучайтириш, таҳлилий жанрларни ривожлантириш, мигрантларни инсон сифатида кенгроқ акс эттириш ҳамда салбий умумлаштиришлардан қочиш муҳим ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. РИА Новости ахборот материаллари (2020–2024 йиллар).
2. Kun.uz интернет нашри материаллари (2023–2025 йиллар)



ИНТЕРНЕТ ЖУРНАЛИСТИКАСИ ВА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАРДА МЕХНАТ МИГРАНТИ ОБРАЗИ: МАДАНИЙ ВА ЭТНИК ЖИХАТЛАР

Ортиқхўжа Исроилович НОРОВ,

Олий Мажлис ҳузуридаги

Фуқаролик жамияти институтларини

қўллаб-қувватлаш жамоат фонди матбуот котиби

Email: oin.uzb@gmail.com

АНОТАЦИЯ. Сўнгги йилларда медиа муҳитдаги меҳнат мигранти образи ҳақидаги баҳслар ўзига хос тенденцияларга эга. Масалан, муваффақиятли меҳнат мигрантлари ҳақидаги ижобий ҳикоялардан кўра, улар билан боғлиқ ҳуқуқбузар, муаммоли вазият, иш жойидаги фожеа каби салбий воқеаларга кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Бу эса жамоатчилик онгида уларга нисбатан бир томонлама салбий образ шакллантиришига олиб келади. Мазкур тезисда Интернет ОАВ ва ижтимоий тармоқларда меҳнат мигрантлари образининг шаклланиши маданий, этник ва ижтимоий омиллар нуқтаи назаридан таҳлил қилиниб, уларнинг аудитория онгидаги таъсири очиқ берилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: меҳнат миграцияси, Интернет журналистикаси, ижтимоий тармоқлар, медиа дискурс, мигрант образи, этник идентификация, ксенофобия, медиафрейм, жамоатчилик фикри.

Замонавий глобаллашув жараёнларида меҳнат миграцияси жаҳон ҳамжамиятидаги энг муҳим ижтимоий ҳодисалардан бирига айланди. Айниқса, ахборот технологияларининг жадал ривожланиши натижасида Интернет журналистикаси ва ижтимоий тармоқлар меҳнат мигрантлари ҳақидаги тасаввурларни шакллантирувчи асосий медиа майдонга айланмоқда. Бугунги кунда миграция мавзуси фақат иқтисодий жараён сифатида эмас, балки ижтимоий, маданий, этник ва сиёсий муносабатларнинг муҳим қисми сифатида ҳам намоён бўлмоқда.

Медиа муҳитида меҳнат мигрантлари образининг қандай ёритилиши жамоатчилик фикри, миллатлараро муносабатлар ва ижтимоий муносабатларга бевосита таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан қараганда, медиа воқеликни фақат акс эттирмайди, балки уни қайта ишлаб чиқади, муайян маъно ва образларни шакллантиради. Натижада меҳнат мигранти образи ҳам муайян дискурсив стратегиялар асосида аудитория онгида шаклланади.

Қабул қилувчи давлатлар медиасида меҳнат мигрантлари кўп ҳолларда ноқонуний миграция, хавфсизлик, жинойтчилик ёки маданий зиддият контекстида тасвирланади. Бу эса мигрантларни “бегона” ижтимоий гуруҳ сифатида қабул қилинишига сабаб бўлади. Аксинча, ишчи кучини юборувчи



давлатлар медиасида улар иқтисодий ресурс, ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлам ёки миллий меҳнат қаҳрамони сифатида талқин қилинади. Бу ҳолат медиа дискурсида “биз” ва “улар” дихотомиясининг шаклланишига олиб келади [1].

Тадқиқот жараёнида Ўзбекистоннинг “Kun.uz”, “Daryo.uz”, “Qalampir.uz” ва “Gazeta.uz” каби интернет нашрлари ҳамда Россиянинг “ТАСС”, “Известия”, “Gazeta.ru” ва “Forbes Russia” каби ахборот платформаларида эълон қилинган материаллар қиёсий таҳлил қилинди. Контент-таҳлил ва дискурс-таҳлил усуллари асосида меҳнат мигрантлари образининг қандай шаклланаётгани ўрганилди.

Таҳлиллар шуни кўрсатдики, меҳнат мигрантлари ҳақидаги материалларда эмоционал ва таъсирчан лексика кенг қўлланилади. Хусусан, “муаммо”, “таҳдид”, “жиноятчилик”, “ҳимоя”, “ксенофобия” каби тушунчалар орқали аудитория онгида муайян муносабат шакллантирилади. Айрим ҳолатларда мигрантлар иштирокидаги жиноятлар ҳақидаги хабарларнинг селектив ва шов-шувли тарзда ёритилиши маҳаллий аҳоли орасида салбий стереотипларнинг кучайишига сабаб бўлмоқда.

Масалан, Россия медиасида мигрант болаларининг рус тилини билиши ёки уларнинг мактабларга қабул қилиниши билан боғлиқ мавзулар кенг муҳокама қилинди. Бу жараёнда айрим нашрларда мигрант фарзандлари таълим тизими учун “муаммо” сифатида талқин қилинган бўлса, бошқа материалларда мазкур ҳолат инсон ҳуқуқлари ва интеграция сиёсати нуқтаи назаридан баҳоланган [2, 3, 4, 5]. Бу эса бир хил воқеликнинг турли медиа платформаларда мутлақо турлича талқин қилинишини кўрсатади.

Шу билан бирга, Ўзбекистон интернет нашрларида меҳнат мигрантлари иқтисодий нуқтаи назардан муҳим ресурс сифатида тасвирланади. Хусусан, мигрантлар томонидан юборилаётган пул ўтказмалари ва уларнинг мамлакат иқтисодиётидаги ўрнига алоҳида урғу берилади. Бу ҳолат меҳнат мигранти образини “иқтисодий донор” сифатида шакллантиришга хизмат қилади. Бироқ айни пайтда мигрантлар ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлам сифатида ҳам ёритилиб, уларга нисбатан ксенофобик муносабатлар ва ҳуқуқий муаммолар ҳақидаги материаллар кенг тарқатилмоқда [6, 7, 8, 9].

Медиа муҳитида мигрантларнинг маданий ва этник идентификацияси ҳам муҳим ўрин тутаяди. Айрим материалларда “ўзбек мигранти” тушунчасининг доимий такрорланиши аудитория онгида меҳнат миграциясини муайян миллат билан боғлашга хизмат қилади. Бу эса мигрантларни индивидуал шахс сифатида эмас, балки умумлаштирилган ижтимоий гуруҳ сифатида қабул қилинишига олиб келиши мумкин [10].

Шунингдек, ижтимоий тармоқлардаги муҳокамаларда тил, дин, маданият ва миллий мансублик билан боғлиқ баҳслар кўп учрайди. Айрим ҳолатларда бу муҳокамалар нафрат риторикаси ёки камситиш элементлари билан кечади. Натижада ижтимоий тармоқлар мигрантларга нисбатан салбий кайфиятларни кучайтирувчи омилга айланиши мумкин.

Юқоридаги таҳлиллар асосида хулоса қилиш мумкинки, Интернет



журналистикаси ва ижтимоий тармоқларда меҳнат мигранти образи кўпқиррали ва гибрид характерга эга. У бир вақтнинг ўзида иқтисодий ресурс, ижтимоий ҳимояга муҳтож субъект ҳамда маданий трансформация жараёнидаги шахс сифатида намоён бўлади. Шу сабабли, меҳнат миграцияси мавзусини ёритишда профессионал журналистика стандартлари, фактчекнинг ва инсонпарвар ёндашув муҳим аҳамият касб этади. Чунки медиа муҳитда шаклланган ҳар қандай образ жамоатчилик онги ва миллатлараро муносабатларга бевосита таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Меҳнат мигрантлари хорижда қандай диний муаммоларга дуч келади?, Tarjumon.uz, URL: <https://t.me/tarjumonuz/7440> (Мурожаат вақти: 25.05.2023)
2. Дети мигрантов могут начать проходить обязательную языковую диагностику, ТАСС, URL: <https://tass.ru/obschestvo/21909827> (Мурожаат вақти: 16.03.2025)
3. Не больше трех: Минпросвещения рекомендовало ограничить число детей иностранцев в классах, “Известия”, URL: <https://iz.ru/1760579/natalia-bashlykova/ne-bolshe-trekh-minprosveshcheniia-rekomendovalo-ogranichit-chislo-detei-inostrantsev-v-klassakh> (Мурожаат вақти: 16.03.2025)
4. Более 58% детей мигрантов показали хорошее знание русского языка, “Ведомости”, URL: <https://www.vedomosti.ru/society/news/2024/11/28/1077832-bole-58-detei-migrantov> (Мурожаат вақти: 16.03.2025)
5. «Ни слова на русском». В России хотят ограничить число детей-мигрантов в школах, Gazeta.ru, URL: <https://www.gazeta.ru/social/2024/09/18/19766359.shtml> (Мурожаат вақти: 16.03.2025)
6. Kun.uz, URL: <https://kun.uz/kr/news/2024/11/25/rossiyada-rus-tilini-bilmaydigan-migrant-bolalari-maktabga-qabul-qilinmasligi-mumkin> (Мурожаат вақти: 16.03.2025)
7. Россия Давлат думасига рус тилини билмайдиган мигрант болаларни мактабларга киритишни тақиқлаш лойиҳаси киритилди, Daryo.uz, URL: <https://daryo.uz/k/2024/11/26/rossiya-davlat-dumasigamigrant-bolalarni-rus-tili-imtihonisiz-maktabga-qabul-qilishni-taqiqlovchi-qonun-loyihasi-kiritildi> (Мурожаат вақти: 17.03.2025)
8. Россия мактабларида мигрантлар болалари қабули қийинлашди, Qalampir.uz, URL: <https://qalampir.uz/news/rossiya-maktablarida-migrantlar-bolalari-k-abuli-k-iyinlashdi-109576> (Мурожаат вақти: 17.03.2025)
9. Россияда мигрантларнинг рус тилини билмайдиган фарзандларини мактабга олмаслик таклиф қилинди, Gazeta.uz, URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/11/01/russia/> (Мурожаат вақти: 17.03.2025)
10. Среднестатистический трудовой мигрант оказался женатым мужчиной из Узбекистана, Forbes Russia, URL: <https://www.forbes.ru/biznes/526665-srednestatisticeskij-trudovoj-migrant->





ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

PRESENT PERFECT CONTINUOUS SHAKLIDA DAVOMIYLIK VA
NATIJAVIYLIK O‘RTASIDAGI ASPEKTUAL MUNOSABAT: INGLIZ VA
O‘ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLIL

Kayumova Nilufar Kuchkorovna

„ZARMED“ universiteti Samarqand kampusi
Muhandislik-iqtisodiyot va gumanitar fanlar instituti

„Chet tillar kafedrası“ o‘qituvchisi

nilufar.kayumova81@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-0740-1923>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi ingliz tilidagi Present Perfect Continuous zamon shaklining aspektual xususiyatlari, davomiylik (durativity) va natijaviylik (resultativity) o‘rtasidagi munosabat ingliz va o‘zbek tillari qiyosida tahlil qilinadi. Tadqiqot materialini sifatida J. K. Rowlingning *Harry Potter and the Sorcerer’s Stone* asaridan tanlangan misollar qo‘llanildi. Tahlil natijalari Present Perfect Continuous shaklida davomiylik va natijaviylikning birgalikda namoyon bo‘lishini, o‘zbek tilida esa ushbu ma’nolarning asosan leksik, sintaktik hamda kontekstual vositalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: aspektuallik, davomiylik, natijaviylik, teliklik, atellik, aspektual, temporal, interpretatsiya.

Ingliz tilidagi zamon–aspekt tizimi murakkab semantik munosabatlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lib, ulardan biri Present Perfect Continuous shaklidir. Mazkur konstruktsiya Perfect va Continuous komponentlarining birlashuvi natijasida yuzaga keladi. Continuous komponenti jarayonning davomiyligini, Perfect komponenti esa harakatning nutq momenti bilan bog‘langan natijaviy xususiyatini ifodalaydi [1, b.16-18]. Shu sababli Present Perfect Continuousda davomiylik va natijaviylik o‘rtasida o‘ziga xos aspektual munosabat yuzaga keladi.

Aspekt nazariyasida B. Comrie aspektni harakatning ichki temporal tuzilishi sifatida tavsiflaydi, “*aspects are different ways of viewing the internal temporal constituency of a situation*” («aspektlar — vaziyatning ichki temporal tuzilishini turlicha ko‘rish usullari») [1, b. 3], C. Smith esa vaziyat turlari va viewpoint aspekt o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni alohida ta’kidlaydi [2, b. 19–33]. Fe’llarning aspektual tasnifi haqidagi klassik qarashlar Z. Vendler tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u fe’llarni states, activities, accomplishments, achievements guruhlariga ajratadi [3, b. 143–160]. Mazkur tasnif Present Perfect Continuous shaklida ifodalangan davomiy va yakunlanmagan harakatlarning aspektual tabiatini izohlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlarga ko‘ra, Present Perfect Continuous davom etuvchi, ko‘pincha atelik xarakterdagi vaziyatlarni ifodalash bilan birga, ularning nutq momentiga bog‘liq natijasini ham ko‘rsatishi mumkin [2, b. 62-68].



J. K. Rowling asaridan olingan quyidagi misolda davomiylik va natijaviylikning uyg'unligi kuzatiladi:

"The nation's owls have been behaving very unusually today."

"...bugun hamma joyda boyqushlarning taajjubli harakati kuzatilgan."

Ushbu misolda **have been behaving** shakli kun davomida davom etgan noodatiy holatni bildiradi. Temporal marker hisoblangan **today** harakatning vaqt oraliq'ini aniqlashtiradi. Shu asnoda natija nutq momentida sezilib turibdi, ya'ni g'ayrioddiy xatti-harakat hali ham muhokama qilinmoqda. O'zbek tarjimasida davomiylik grammatik jihatdan emas, balki "*taajjubli harakati*" birikmasi hamda kontekst orqali ifodalangan.

Shunga o'xshash holat quyidagi misolda ham kuzatiladi:

"Well, Ted... it's not only the owls that have been acting oddly today."

"...bugun faqat boyqushlargina o'zini g'alati tutmaganini aniq bilaman."

Bu yerda **have been acting** konstruksiyasi ma'lum vaqt davomida takrorlanib yoki uzluksiz sodir bo'lgan harakatni ifodalaydi. Ingliz tilida aspektual ma'no grammatik vosita orqali aniq ko'rinadi, o'zbek tilida esa ushbu ma'no "*o'zini g'alati tutmoq*" fe'l birikmasi orqali leksik jihatdan yuzaga chiqadi.

Davomiylikning uzoq muddatli xarakteri quyidagi misolda yaqqol namoyon bo'ladi:

"For eleven years I have been trying to persuade people..."

"O'n bir yildan buyon uni Voldemort deb atashga odamlarni majbur qilish bilan ovoraman."

Ushbu misolda *for eleven years* vaqt ko'rsatkichi harakatning uzoq davomiyligini bildiradi. Shu bilan birga, harakatning yakunlanmaganligi ham seziladi. O'zbek tilida esa ushbu ma'no "*-dan buyon*" temporal konstruksiyasi va "*ovoraman*" fe'li orqali berilgan.

Yana bir misolda harakatning davomiyligi va hozirgi holat bilan aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi:

"I've been watching them all day."

"Men kuni bilan kuzatib o'tirdim ularni."

Bu yerda **all day** temporal indikatori kuzatish jarayonining davomiyligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi Present Perfect Continuous shakli harakatning kun davomida sodir bo'lib, nutq momentiga aloqador ekanligini anglatadi. O'zbek tilida esa "*kuni bilan*" birikmasi davomiylik semantikasini ifodalagan bo'lsa-da, perfect komponentining natijaviy ma'nosi kuchsizroq namoyon bo'ladi.

Shu kabi yana bir misolda davomiylikning kommunikativ natija bilan bog'liqligi kuzatiladi:

"I've been asking around, and I hope I'm in Gryffindor..."

"Shaxsan men o'zim haqimda so'rab bildim. Umid qilamanki, "Griffindor"ga qabul qilishadi."

Bu misolda **have been asking around** konstruksiyasi ma'lum vaqt davomida davom etgan surishtirish jarayonini anglatadi. Natijaviylik esa keyingi fikr — *I hope I'm in Gryffindor* — orqali yuzaga chiqadi. O'zbek tarjimasida esa jarayonning davomiyligi qisqarib, natija komponenti kuchaygan.



Izlanish natijasiga ko'ra Present Perfect Continuous shaklida davomiylik va natijaviylik bir vaqtning o'zida namoyon bo'luvchi murakkab aspektual munosabat mavjud. Ingliz tilida ushbu ma'nolar grammatik vositalar yordamida sistemali ifodalansa, o'zbek tilida ular ko'proq temporal ko'rsatkichlar, leksik birliklar va kontekstual interpretatsiya orqali yuzaga chiqadi. Mazkur farqlar ingliz va o'zbek tillarining aspektual tizimlaridagi tipologik tafovutlarni namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bernard Comrie *Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. – 142 p.
2. Carlota S. Smith *The Parameter of Aspect*. 2nd ed. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1997. – 340 p.
3. Zeno Vendler Verbs and Times // *The Philosophical Review*. – 1957. – Vol. 66, No. 2. – P. 143–160.
4. John Lyons *Semantics*. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
5. J. K. Rowling *Harry Potter and the Sorcerer's Stone*. – New York: Scholastic Inc., 1998. – 309 p.
6. Роулинг Дж. К. *Гарри Поттер ва ҳикматлар тоши*. / ўзбек тилига таржима. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 320 б.



THE IMPORTANCE OF MOTIVATION IN LEARNING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

Nodira Axmedova

Senior teacher,

Uzbekistan State World Languages University

ahmedovanodirahon5@gmail.com

Abstract: Motivation is one of the most significant factors influencing success in learning English as a foreign language. It affects students' interest, participation, persistence, and overall academic performance. This article examines the role of motivation in English language learning, identifies different types of motivation, and analyzes teaching strategies that increase learner engagement. The study highlights the importance of teacher support, classroom environment, modern technologies, and communicative activities in maintaining student motivation. The findings demonstrate that motivated learners achieve better language proficiency and develop stronger communicative competence.

Keywords: Motivation, English language learning, learner engagement, communicative competence, intrinsic motivation, teaching strategies.

Annotatsiya: Motivatsiya ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda muvaffaqiyatga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biridir. U talabalarning qiziqishi, ishtiroki, qat'iyati va umumiy akademik natijalariga ta'sir qiladi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishda motivatsiyaning o'rni, motivatsiya turlari hamda o'quvchilar faolligini oshiruvchi pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'qituvchi yordami, sinf muhiti, zamonaviy texnologiyalar va kommunikativ mashg'ulotlarning motivatsiyani saqlashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ingliz tilini o'rganish, kommunikativ kompetensiya, ichki motivatsiya, o'qitish strategiyalari.

Аннотация: Мотивация является одним из важнейших факторов, влияющих на успешность изучения английского языка как иностранного. Она влияет на интерес студентов, участие в учебном процессе, настойчивость и общую академическую успеваемость. В статье рассматривается роль мотивации в изучении английского языка, определяются различные виды мотивации и анализируются педагогические стратегии повышения вовлеченности обучающихся. Исследование подчеркивает важность поддержки преподавателя, учебной среды, современных технологий и коммуникативных заданий в поддержании мотивации студентов.

Ключевые слова: мотивация, изучение английского языка, вовлеченность, коммуникативная компетенция, внутренняя мотивация.

Learning English as a foreign language has become increasingly important in modern society. English is widely used in education, science, technology, business, and international communication. However, successful language acquisition



depends not only on teaching methods and materials but also on learner motivation. Motivation is the internal and external force that encourages students to learn and continue learning despite difficulties. Highly motivated learners are more active, persistent, and confident in their language studies. They are willing to practice regularly, communicate with others, and overcome challenges. Teachers and educational institutions play an important role in creating conditions that support motivation and encourage positive attitudes toward language learning.

Types of Motivation

Motivation is generally divided into intrinsic and extrinsic motivation. Intrinsic motivation comes from internal interest and personal satisfaction. Students learn because they enjoy the process or value personal development. For example, a learner may study English because they enjoy reading English literature or watching foreign films. Extrinsic motivation is based on external rewards such as grades, certificates, scholarships, or career opportunities. Many students study English to pass examinations or improve future employment prospects. Both types are important. However, intrinsic motivation often leads to stronger long-term learning outcomes because learners remain engaged even without external pressure.

The Role of Teacher Motivation

Teachers strongly influence student motivation through their teaching style, attitude, and classroom behavior.

A supportive teacher creates trust and encourages participation. Positive feedback increases student confidence and reduces fear of making mistakes. Teachers who use interesting activities, real-life examples, and creative tasks help maintain learner curiosity. Enthusiastic teachers inspire students to become more interested in language learning.

Professional competence is equally important. Students are more motivated when lessons are organized, meaningful, and clearly connected to practical language use.

Classroom Environment and Motivation

The classroom atmosphere directly affects student engagement.

A positive learning environment should be supportive, respectful, and interactive. Students need to feel safe expressing ideas without fear of criticism. Collaborative learning activities such as group discussions and pair work increase communication and social support.

Comfortable classroom conditions, access to learning materials, and visually engaging lessons also contribute to learner motivation.

Technology and Motivation

Modern technology has transformed language learning.

Digital tools such as interactive applications, videos, online quizzes, and virtual classrooms make lessons more engaging.

Gamified learning increases enjoyment and encourages regular practice through rewards and challenges. Technology also supports personalized learning.



Students can study independently according to their pace and interests, which increases autonomy and responsibility.

However, technology should complement teaching rather than replace human interaction.

Communicative Activities as Motivation Tools

Communicative activities increase student interest because they connect language learning to real-life situations. Role-plays, debates, presentations, storytelling, and problem-solving tasks encourage active participation.

These activities help students understand the practical value of English and increase confidence in speaking. When students see real progress in communication, their motivation naturally grows. Challenges in Maintaining Motivation. Maintaining motivation is often difficult. Students may lose interest because of repetitive lessons, lack of confidence, fear of mistakes, or limited progress. External pressures such as examinations and academic stress may reduce intrinsic motivation. Teachers must recognize these challenges and adapt teaching strategies to keep students engaged. Regular encouragement, varied activities, and realistic learning goals help maintain motivation over time.

Conclusion. Motivation is essential for successful English language learning. It influences learner participation, persistence, confidence, and academic achievement. Teachers play a central role in developing motivation through supportive interaction, effective lesson planning, and engaging activities. Technology and communicative methods further strengthen learner interest and autonomy. Educational institutions should prioritize motivational strategies in language teaching to create positive and productive learning experiences. Motivated students are more likely to achieve language proficiency and develop lifelong learning habits.

References

1. Dörnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom
2. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching
4. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
5. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching
6. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson.
7. Lightbown, P. & Spada, N. How Languages are Learned
8. Lightbown, P., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.



MINTAQANING TURIZM SALOHİYATINI VAHOLASH VA
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Gulyamova Gulnora Pataxkamalovna

i.f.n., dotsent

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ggulyamova@yandex.ru

Annotatsiya. Maqolada mintaqalar va destinatsiyalar turistik salohiyati tushunchasiga ta’rif berilgan va uning elementlari ajratib ko‘rsatilgan. Turli mualliflarning turizm salohiyati tushunchasiga yondashuvlari tahlil etilib, turistik salohiyatga baho berish uslublari umumlashtirilgan. Mamlakatning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlashda ularning turistik salohiyatiga baho berish, bunda har bir hudud va mintaqaning o‘ziga xos turistik resurslari, mintaqada turizm sektorining rivojlanish darajasi hamda yo‘nalishini hisobga olgan holda alohida ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: turizm, salohiyat, mintaqa turizm salohiyati, destinatsiya, turizmni rivojlantirish strategiyasi, tabiiy sharoit va resurslar, madaniy va tarixiy resurslar, iqtisodiy salohiyat.

Hozirgi davrda jahonda turizm industriyasining rivojlanishi global raqobat muhitini yanada kuchaytirib, mamlakatlarni o‘z turistik salohiyatini samarali safarbar etish, yangi turistik mahsulotlar yaratish va xizmatlar sifatini oshirishga undamoqda. Bugungi global iqtisodiy jarayonlar va xalqaro turistik bozordagi raqobatning kuchayishi O‘zbekiston uchun ham turizm sohasini strategik tarmoq sifatida rivojlantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmogda.

Xususan, mamlakatda turizmni iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qarash tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada qabul qilingan strategik hujjatlar turizm sohasida institutsional, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi strategik dasturlarda turizm sohasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmogda.

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beruvchi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham turizm sohasini rivojlantirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Unda turizmni iqtisodiyotning drayver tarmoqlaridan biriga aylantirish, ichki va tashqi turistlar oqimini keskin oshirish, hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirish, zamonaviy turistik klasterlar va raqamli xizmatlarni



joriy etish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida mamlakatimizda turistlar oqimini ko'paytirish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan.

2030-yilga kelib mamlakatimizga keladigan xorijiy turistlar sonini 20 millionga va ziyorat turizmi yo'nalishida tashrif buyuruvchilar sonini 3 milliongacha, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan [1]. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda mamlakat turizm salohiyatini to'g'ri baholash va uni rivojlantirish muammolarini o'rganish dolzarb masala bo'lib qoladi.

Turistik mintaqalar va destinasiyalar salohiyatini o'rganish va baholash masalalari doimo mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xorijiy mualliflarning katta qismi mintaqaning turizm salohiyatiga ma'lum bir hududda turistik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tabiiy, tarixiy va madaniy obyektlar va hodisalar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik shart-sharoitlar majmuidan iborat deb ta'rif bergan. Jumladan, T.A.Yudina, S.A.Grigoryan, [2] N.V.Sicheva, [3] I.A.Tachkovalarning [4] ishlarida turizm salohiyati uni rivojlantirish uchun zarur resurslar va ularni qo'llash imkoniyatlari, ya'ni erishilgan va mumkin bo'lgan imkoniyatlarni o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. A.B.Usmanova, M.I.Zokirovalarning fikriga ko'ra, mintaqaning turistik salohiyatini baholashni bitta usul yordamida amalga oshirish mumkin emas, chunki har bir mintaqaning boshqa hech bir yo'nalishda uchramaydigan salohiyati va o'ziga xos xususiyati bor, shu sababli ham har bir mintaqaga uchun subyektiv o'lchov bo'lishi kerak [6].

Mintaqa yoki destinatsiyaning turizm salohiyati tushunchasini mohiyatini tahlil etishda avvalo "salohiyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Odatda, salohiyat mavjud resurslar va ularni qo'llash imkoniyatlarini, ya'ni erishilgan va mumkin bo'lgan imkoniyatlar tushuniladi. Bu ma'noda salohiyat tushunchasiga ta'rif berishda uning ikki tomonini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- birinchidan, salohiyat – bu bir holatdan ikkinchi, mukammal holatga o'tish imkoniyati, o'zgarish faoliyatidir;

- ikkinchidan salohiyatni sifat o'zgarishlar uchun zarur resurslar majmui sifatida tushunish mumkin.

Salohiyat atamasining iqtisodiy tizimlarga nisbatan iqtisodiy kategoriya sifatida ishlatilishi iqtisodiy salohiyat tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi marta iqtisodiy salohiyat tushunchasi XX asrning 70-80 yillarida ishlatila boshlandi.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasiga bir qator iqtisodchilar resurs nuqtayi nazaridan ta'rif berib - iqtisodiy salohiyat tovar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur bo'luvchi ishlab chiqarish omillari majmui deb ta'kidlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham iqtisodiy salohiyat tarkibini ta'riflashda ikkita metodologik yondashuv taklif etiladi. Birinchidan bunda milliy iqtisodiyot ega bo'lgan resurslarni baholash nazarda tutilsa, ikkinchidan xo'jalik



oborotiga jalb etilayotgan barcha resurslarni qo‘llash jarayonida ehtimol tutilgan iqtisodiy natijani aniqlash anglanadi [7]. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatning mazmunini ochib berishda ushbu masala “iqtisodiy salohiyat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy resurs, imkoniyat, zahira, sharoit, vosita kabi tushunchalarning nisbatini aniqlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi [8].

Mintaqa turistik salohiyatini tasniflashda iqtisodiy salohiyat tushunchasidan kelib chiqqan holatda, jarayon va resurs yondashuvlariga asoslanilgan holda ta’rif berish mumkin. Bizning fikrimizcha, mintaqa va destinatsiyalarning turistik salohiyatiga jarayon sifatida qarash mumkin bo‘lib, u mamlakat, mintaq va destinatsiyaning turistlarni qabul qilish va ularga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatini belgilaydi. Resurs nuqtayi nazaridan qaralganda, mintaqaning turistik salohiyati turistlarni jalb qila oladigan tabiiy, madaniy, tarixiy, iqtisodiy va boshqa resurslarning yig‘indisini ifodalaydi.

Hududning turizm salohiyatini baholash turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, sarmoyalarni jalb etish va turizm sohasini barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, mintaqaning turistik salohiyatini baholash murakkab jarayon bo‘lib, u hududning turistlar uchun jozibadorligiga ta’sir qiluvchi turli jihatlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Jumladan, mintaqaning turizm salohiyatini baholashda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- mintaqaning tabiiy sharoiti va resurslari; bu ko‘rsatkichlarga baho berganda quyidagilar hisobga olinishi zarur — landshaftlarning xilma-xilligi va estetikasi, hayvonlar va o‘simliklarning xilma-xilligi, o‘rmon qoplami, balchiq, mineral suvlar bilan davolash manbalarining mavjudligi, g‘orlar, noyob yovvoyi meva va rezavorlar, yirik daryolar va irmoqlari, qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, botanika bog‘lari, hayvonot bog‘lari, tabiat yodgorliklari, qo‘riqlanadigan hududlarda rekreatsiya tadbirlarini tashkil etish darajasi.

- madaniy va tarixiy resurslarni baholash ko‘rsatkichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shaharsozlik va arxitektura yodgorliklari, tarix, arxeologiya, san’at, mintaqadagi taniqli shaxslar hayoti bilan bog‘liq madaniy meros obyektlari, an’anaviy madaniyat obyektlari, amaliy markazlarning mavjudligi;

- turistik infratuzilma bilan ta’minlanganlikni baholashda 3-5 yulduzli mehmonxonalar yetarliligi, toifasiz turar joy, umumiy ovqatlanish korxonalarining yetarliligi, sport inshootlarining mavjudligi, ko‘ngilochar obyektlar, davolash-sog‘lomlashtirish maskanlari, savdo markazlari, aeroportlarning mavjudligi, vokzallar, avtovokzallar mavjudligi, transport turlarining xilma-xilligi, sayyohlik markazlarining xalqaro aeroport, vokzal, avtovokzalga yaqinligi, turizm bozori ishtirokchilarining xorijiy tillarni bilishi va boshqa ko‘plab parametrlar hisobga olinishi kerak;

- Turizmning axborot ta’minoti va xavfsizligi bo‘yicha baholashda uyali aloqa operatorlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifati, mobil Internet mavjudligi, bepul Wi-Fi ulanish nuqtalarining mavjudligi, sayyohlik kompaniyalari uchun ishlab chiqilgan veb-saytlar mavjudligini, shu jumladan turizm uchun



moslashtirilgan veb-saytlarning mavjudligi mobil qurilmalar, plastik kartochkalar bilan to'lovlar mavjudligi, elektron qo'llanmalar mavjudligi va ularning keng foydalanuvchilar doirasi uchun ochiqligi, turistik axborot markazlarining mavjudligi, turistik belgilar mavjudligi kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi;

- mintaqada turistlar xavfsizligi va salomatligiga tahdid qiluvchi omillar, bularga suzish uchun yaroqli suv havzalaridagi suv sifati, ichish uchun yaroqli suv sifati, havo sifati, xavfli tabiat hodisalari ehtimoli, xavfli va zaharli hasharotlar va hayvonlarning, shu jumladan xavfli kasalliklar tashuvchilarning, zaharli o'simliklarning mavjudligi.

Albatta bu omillarni hisobga olgan holda mintaq va destinatsiyalarning turistik salohiyatiga baho berish yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, turizm sohasida ba'zi ma'lumotlarni baholashda aniq raqamli ma'lumotlar raqamlarni olish mumkin bo'lmaganligi sababli, bu usulni turizmning resurs salohiyatiga baho berishda qo'llash jarayonida ekspert baholash usullaridan ham foydalanishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish va pirovardida turizmni iqtisodiyotning lokomotiv tarmoqlaridan biriga aylantirish dolzarb vazifalardandir. O'zbekiston turizmning turli turlarini rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Shu bilan birga mamlakatning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlashda ularning mavjud turistik salohiyatiga baho berish maqsadga muvofiq. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganish va umumlashtirish asosida turizm salog'iyatiga baho berish uslubi taklif qilingan bo'lsada, ushbu uslubdan foydalanganda har bir hudud va mintaqaning o'ziga xos turistik resurslari, mintaqada turizm sektorining rivojlanish darajasi hamda yo'nalishini hisobga olgan holda har bir mintaq uchun alohida ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «O'zbekiston - 2030» strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. Юдина Т. А., Григорян Ц. А. Туристический потенциал региона: оценка и эффективное управление //Теоретическая экономика. – 2019. – №. 1 (49). – С. 78-83.
3. Сычева Н. В. Туристский ресурс как фактор экономического развития региона //Вестник Оренбургского государственного университета. – 2011. – №. 8 (127). – С. 136-143.
4. Тачкова И. А., Хохлова А. В. Резервы развития туристического потенциала региона в современных экономических условиях //Экономика. Социология. Право. – 2018. – №. 2 (10). – С. 48-53.
5. Власов, М. Концептуальная модель оценки величины интегрального потенциала туристского бизнеса крупного города// Вестник ИНЖЭКОНА. – 2010. – № 7. – С. 98-104.



6. Usmanova A.B., Zokirova M.I. (2021). TOURIST POTENTIAL OF THE BUKHARA REGION. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(04), 243–246. Retrieved from <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/93>

7. Қобилов Ш. Р. Иқтисодиёт назарияси: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 775 б.

8. Юсупов Б.А. Ўзбекистонда кичик бизнес иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т. – 2020. 13-б.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA MADANIY VA KONTEKSTUAL
JIHATLARGA MOS TARJIMA YONDASHUVLARI

Dotsent Alibekova Zilola Abdulxayit qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining tarjima jarayonidagi o'rni hamda kontekst va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda tarjima sifatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mashinali tarjima tizimlarining lingvistik, pragmatik va madaniy xususiyatlarni aniqlashdagi samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tarjima yondashuvlarining afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari yoritiladi. Maqolada turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi kommunikativ moslikni ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tarjima strategiyalari, mashinali tarjima, kontekstual tarjima, madaniy nuanslar, lingvistik tahlil, pragmatika, kommunikativ moslik, til texnologiyalari, avtomatik tarjima.

Zamonaviy globallashtirish jarayoni tarjima faoliyatini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda tarjima nafaqat lingvistik birliklarning so'zma-so'z (literal) ekvivalenti sifatida qaralmaydi, balki madaniy nuanslar, pragmatik kontekst va maqsadli auditoriyaning kutganlari va madaniy kutqularini hisobga oluvchi murakkab kommunikativ harakat sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv tarjimonlik nazariyasidagi dinamik ekvivalensiya (Nida, 1964) va skopos nazariyasi (Vermeer) kabi konsepsiyalarga asoslanadi, unda tarjima matnning funksional va madaniy moslashuvini birinchi o'ringa qo'yadi. Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari, xususan, neyron mashina tarjimasi (NMT) va katta til modellar (Large Language Models — LLM) tarjima jarayonini keskin tezlashtirdi hamda hajmi katta bo'lgan matnlarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini yaratdi. Biroq, madaniy va kontekstual jihatlari hali ham AI tizimlarining eng katta zaif tomonlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Madaniy nuanslar tilning chuqur qatlamlarini — idiomalarni, metaforalarni, hazil va kinoyalarni, ijtimoiy normalar hamda tarixiy va madaniy referenslarni o'z ichiga oladi. Bunday unsurlar ko'pincha tilning milliy-madaniy o'ziga xosligi (cultural specificity) bilan bog'liq bo'lib, ularni boshqa madaniyatga to'liq ekvivalent tarzda yetkazish qiyin.

Masalan, ingliz tilidagi **“Break a leg”** iborasi tom ma'noda “oyog'ingni sindir” deb tarjima qilinganda, target madaniyatda g'alati yoki salbiy ma'noni bildirishi mumkin, holbuki u “omad tilayman” degan ijobiy ma'noni bildiradi. AI tizimlari, ayniqsa an'anaviy NMT modellarida, bunday iboralarni ko'pincha literal tarzda tarjima qiladi, chunki ularda insonning “yashash tajribasi” (embodied cognition) va madaniy sxemalar yetishmaydi.



Kontekstual muammo esa soʻz yoki iboraning atrof-muhitga qarab maʼnosining oʻzgarishida namoyon boʻladi. **Polisemiya** (bir xil soʻzning turli maʼnolari) va **diskursiv bogʻlanish** (discourse phenomena) AI uchun eng katta qiyinchiliklardan hisoblanadi. Klassik misol sifatida ingliz tilidagi “**bank**” soʻzini keltirish mumkin: u moliya muassasasi (“bank”) yoki daryo qirgʻogʻi (“river bank”) maʼnolarini bildirishi mumkin. Anʼanaviy NMT modellarida kontekst odatda jumlar chegarasidan oshmaydi, shuning uchun notoʻgʻri tanlovlar tez-tez uchraydi. LLM lar (masalan, GPT-4, Claude, Gemini) esa uzunroq kontekstni (long-context understanding) saqlash qobiliyatiga ega boʻlib, bu jihatdan ancha ustunlikka ega. Shunga qaramay, tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, hatto zamonaviy LLM lar ham murakkab diskursiv va madaniy kontekstlarda xatolarga yoʻl qoʻyadi. Oʻzbek tilida ham shunday holatlar koʻp uchraydi. “Qoʻl” soʻzi nafaqat anatomik organ, balki “yordam” (“qoʻl berish”), “hokimiyat yoki kuch” (“qoʻlida hokimiyat”), “qarindosh” yoki “yordamchi” maʼnolarida ishlatiladi. Bunday leksik birliklarning toʻgʻri tarjima qilinishi nafaqat lingvistik, balki pragmatik va madaniy kompetensiyani talab etadi. AI bu nuanslarni toʻliq hisobga olmasa, tarjima natijasi auditoriya uchun gʻalati, notoʻgʻri yoki hatto haqoratli boʻlib chiqishi mumkin.

Soʻnggi yillarda, xususan 2025–2026 yillarda sunʼiy intellekt tarjimasida sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Neyron mashina tarjimasida (NMT) va katta til modellarining (LLM) rivojlanishi tarjima jarayonini nafaqat tezlashtirdi, balki madaniy va kontekstual moslashuv sifatini ham oshirdi. Zamonaviy AI vositalari (DeepL, Google Translate, Gemini integratsiyasi va yangi LLM lar) oldingi jumalarni, butun paragraf yoki hatto hujjatning umumiy kontekstini hisobga olib tarjima qilish imkoniyatiga ega. Masalan, 2025 yil oxirida Google Translate Gemini modelini integratsiya qilib, idiomalar, mahalliy iboralar va slanglarni yaxshiroq tushunishga erishdi. Bu esa tarjimalarning tabiiyligini oshiradi. Bundan tashqari, LARA (Translated kompaniyasining yangi arxitekturasi) kabi modellar hujjatning toʻliq kontekstidan foydalanib, uzun matnlarda terminologiya va uslub izchilligini saqlaydi. Natijada, bir xil soʻz turli kontekstlarda toʻgʻri maʼnoda tarjima qilinadi.

Bu sohada eng muhim yutuqlardan biri — multi-agent AI tizimlari. Bir nechta maxsuslashtirilgan AI agentlari birgalikda ishlaydi:

- Birinchi agent — asosiy tarjima bilan shugʻullanadi.
- Ikkinchi agent — madaniy interpretatsiya va nuanslarni qoʻshadi.
- Uchinchi agent — madaniy biaslarni tekshiradi va tuzatadi.
- Toʻrtinchi agent — yakuniy sifatni baholaydi.

2025 yilda Shahjalal University va University of Oklahoma tadqiqotchilari tomonidan taklif qilingan bunday framework ayniqsa past-resurs tillar (shu jumladan oʻzbek tili kabi tillar) uchun juda samarali boʻldi. Ular tarjima jarayonini chiziqli emas, balki hamkorlikdagi “jamoʻa ishi”ga aylantirdi. Bu yondashuv madaniy moslashuv va kontekst saqlashda anʼanaviy modellardan 18–25% ga yaxshi natija koʻrsatmoqda.

Turli madaniyatlar haqida maxsus oʻqitilgan modellar endi idiomalar, hazillar, ijtimoiy normalar va tarixiy referenslarni hisobga olib tarjima qilmoqda. Masalan:



- Transcreation jarayonida AI mazmuni mahalliy auditoriyaga moslashtirib, faqat soʻz emas, balki his-tuygʻu va taʼsirni saqlaydi.
- Baʼzi modellar (Claude, GPT-5 va boshqalar) marketing matnlarida madaniy moslashuvni taklif qiladi.

Ammo tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, idiomalar va hazillarda hali ham inson aralashuvi zarur. Shuning uchun kulturally adaptive AI koʻpincha RAG (Retrieval-Augmented Generation) texnologiyasi bilan birgalikda ishlatiladi — tashqi madaniy bazalardan maʼlumot olib, tarjima sifatini oshiradi. Hozirgi vaqtda eng samarali va keng qoʻllaniladigan usul — hybrid yondashuv hisoblanadi. AI dastlabki tez tarjima (draft) tayyorlaydi, keyin professional tarjimon post-editing orqali madaniy moslashuv, uslub va nuanslarni toʻgʻrilaydi. Bu yondashuv tezlik, narx va sifat oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlaydi. 2026 yilda koʻplab kompaniyalar “human-in-the-loop” tamoyilini qoʻllab, AI ni oddiy matnlar uchun, insonni esa murakkab, brendga oid yoki huquqiy matnlar uchun ishlatmoqda. Post-editing jarayonida tarjimonlar AI xatolarini tuzatib, oʻz tuzatishlarini modelni oʻqitish uchun qayta ishlatishadi (feedback loop). Natijada, tizim vaqt oʻtishi bilan yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda, sunʼiy intellekt tarjima sohasida katta imkoniyatlar ochmoqda, ammo madaniy va kontekstual chuqurlikda hali ham inson tajribasi bilan birgalikda ishlatilganda eng yaxshi natija beradi. Kelajakda multi-agent va adaptive tizimlarning rivojlanishi bu muvozanatni yanada takomillashtirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nida E. A. *Language, Culture and Translating*. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001.
2. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988.
3. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – London: Routledge, 2018.
4. Catford J. C. *A Linguistic Theory of Translation*. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
5. Karimov Sh. *Tarjimashunoslik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2016.
6. Qosimov A. *Zamonaviy tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020.



XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTERAKTIV TEKNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI.

Dotsent Alibekova Zilola Abdulxayit qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxramova Shaxzoda Shuxrat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida interaktiv texnologiyalarning (mobil ilovalar, gamification, VR/AR, AI asosidagi platformalar) samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda xalqaro va milliy tajribalar, meta-tahlillar va empirik natijalar asosida interaktiv vositalarning o‘quvchilar motivatsiyasi, til ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv texnologiyalar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega, ammo ularni muvaffaqiyatli qo‘llash o‘qituvchi tayyorgarligi va texnologik infratuzilmaga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: interaktiv texnologiyalar, xorijiy tillarni o‘qitish, gamification, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik, samaradorlik.

Zamonaviy globallashtirish jarayoni insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish nafaqat oddiy kommunikativ vosita, balki professional muvaffaqiyat, karyera o‘sishi va ijtimoiy integratsiyaning muhim omiliga aylandi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p tilli mutaxassislar bir tilli mutaxassislariga nisbatan 5–20% yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lib, ish beruvchilarning 90% dan ortig‘i xorijiy til ko‘nikmalariga ega xodimlarga muhtojlik sezmoqda.

An’anaviy o‘qitish usullari (grammatik-tarjimaviy metod, darslikka asoslangan mashqlar, taxta va audio-materallar) uzoq vaqt davomida asosiy vosita bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy talablarga javob bera olmay qolmoqda. Ushbu usullar o‘quvchilarni ko‘pincha passiv holatga keltiradi, grammatik qoidalarni yodlashga urg‘u beradi, ammo real kommunikativ ko‘nikmalarni (og‘zaki nutq, tinglab tushunish va madaniy moslashuv) yetarli darajada rivojlantirmaydi. Natijada o‘quvchilarning motivatsiyasi pasayadi, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish susayadi va “til qo‘rquvi” (foreign language anxiety) kuchayadi. Ko‘plab tadqiqotlar an’anaviy metodlarning samaradorligi cheklanganligini va o‘quv jarayonini zerikarli qilishini tasdiqlaydi.

Interaktiv texnologiyalar xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartirishga qodir. Ular o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchi sifatida ko‘rib, o‘quv muhitini **immersiv** (chuqur singdirilgan), **individual** va **kontekstual** asosda tashkil etadi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik nazariyalar — konstruktivizm (J. Piaget, L. Vygotsky), konnektivizm (G. Siemens) va vazifaga asoslangan til o‘qitish (Task-Based Language Teaching) tamoyillariga asoslanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarda faol bilim qurish, real vaqt rejimida amaliy



qo‘llash va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan traektoriyani yaratish imkonini beradi. Interaktiv texnologiyalar quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mobil ilovalar (Duolingo, Babbel, Memrise va shunga o‘xshash platformalar). Mobil ilovalar til o‘rganishni har qanday joyda va vaqtda amalga oshirish imkonini yaratadi. Ular gamified elementlar, takrorlash algoritmlari (spaced repetition) va mikro-o‘quv birliklaridan foydalanib, o‘quv jarayonini qulay va doimiy qiladi. Masalan, Duolingo o‘quvchilarga kunlik qisqa mashqlar orqali odat shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalardan muntazam foydalangan o‘quvchilarning lug‘at boyligi va grammatik ko‘nikmalari 25–40% ga o‘sadi (Stockwell, 2023).

2. Gamification elementlari (ball tizimi, reyting, mukofotlar, musobaqalar). Bunday elementlar o‘quv jarayoniga o‘yin mexanizmlarini kiritish orqali ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Ball to‘plash, darajalar, liderlar jadvali va virtual mukofotlar o‘quvchilarda raqobat va yutuq tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu usul ayniqsa yosh o‘quvchilar va talabalarda samarali bo‘lib, ishtirok darajasini 60–80% ga oshirishi mumkin. Biroq, haddan tashqari gamification intrinsik motivatsiyani pasaytirishi mumkinligi ham tadqiqotlarda qayd etilgan (Deterding et al., 2011).

3. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari. VR va AR texnologiyalari til o‘rganishni immersiv muhitga olib chiqadi. O‘quvchilar virtual shaharlarda yurib, mahalliy aholi bilan suhbatlashishi, ob‘ektlarni nomlashi yoki tarixiy voqealarni qayta boshdan kechirishi mumkin. Masalan, AR ilovalari (Google Translate AR yoki Mondly AR) real dunyodagi narsalarni chet tilida belgilab beradi. Meta-tahlillar VR/AR dan foydalangan guruhlarda og‘zaki ko‘nikma va tinglab tushunish darajasi an‘anaviy usullarga nisbatan 35–50% ga yuqori ekanligini tasdiqlaydi (Radianti et al., 2020). Bu texnologiyalar ayniqsa til qo‘rquvini (foreign language anxiety) kamaytirishda samarali.

4. Sun‘iy intellekt asosidagi adaptive platformalar (ChatGPT, Grok, ELSA Speak, Duolingo Max va boshqa AI chatbots). Ushbu platformalar o‘quv jarayonini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtiradi. Adaptive algoritmlar o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, qiyinlik darajasini avtomatik ravishda o‘zgartiradi. AI chatbots real vaqt rejimida suhbat o‘tkazib, xatolarni darhol tuzatadi, talaffuzni tahlil qiladi (ELSA Speak) va shaxsiy fikr-mulohazalarni beradi. GPT-4 va Grok kabi modellar esa murakkab mavzular bo‘yicha dialoglar o‘tkazish, matnlarni tahlil qilish va kreativ yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, AI yordamida o‘qitish individual farqlarni hisobga olgani uchun samaradorlikni 0.7–1.2 effekt o‘lchamigacha oshiradi (Zawacki-Richter et al., 2019). Ushbu texnologiyalarning birgalikdagi qo‘llanilishi hybrid o‘quv muhitini yaratadi, unda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki tilni haqiqiy kommunikativ kontekstda qo‘llash tajribasiga ega bo‘ladi. Natijada, o‘quv jarayoni samaraliroq, qiziqarliroq va uzoq muddatli natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv texnologiyalar xorijiy tillarni o‘qitishni zamonaviy talablarga mos, samarali va natijaviy darajaga ko‘tarishga qodir. Ularning ilmiy asoslangan joriy etilishi O‘zbekiston ta‘lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Harmer J. *The Practice of English Language Teaching*. – London: Pearson Education, 2007.
2. Karimov I., Yo‘ldoshev J. *Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Moliya, 2003.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА ЗАМОНАВИЙ КАСБЛАРНИ О’РГАТИШДА МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИЛИГИ

Hamroyeva Komila Axmatovna

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim
yo‘nalishi 3-“V” guruh talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni zamonaviy kasblarga o‘rgatishda qo‘llaniladigan metod va vositalarning samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy kasblar tushunchasi, ularni erta yoshdan o‘rgatish zarurati hamda ta’lim jarayonida innovatsion metodlarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, STEAM yondashuvi va multimedia vositalarining bolalar rivojiga ta’siri ochib berilgan. Maqolada pedagogik faoliyatda zamonaviy metod va vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy kasblar, maktabgacha ta’lim, interfaol metodlar, STEAM, pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalar, kasbga yo‘naltirish, bolalar rivoji, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida kasblar tarkibi va mazmuni tez sur‘atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari yangi kasblarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois bolalarni erta yoshdan zamonaviy kasblarga yo‘naltirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim bosqichi shaxs rivojining asosiy davri bo‘lib, aynan shu davrda bolalarda qiziqishlar, moyilliklar va dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Zamonaviy kasblarni o‘rgatishda samarali metod va vositalardan foydalanish bolalarning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashga xizmat qiladi.

Zamonaviy kasblar — bu texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan, yangicha bilim va ko‘nikmalarni talab etadigan faoliyat turlaridir. Bular qatoriga dasturchi, dizayner, robototexnika mutaxassisi, bloger, muhandis kabi kasblar kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

- bolalarda qiziqish va motivatsiyani rivojlantiradi;
- ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi;
- zamonaviy dunyo haqidagi bilimlarni kengaytiradi.

Maktabgacha ta’limda metodlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Eng samarali metodlar interfaol va o‘yin asosidagi metodlar hisoblanadi. Interfaol metodlar bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunday metodlar orqali bolalar bilimni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Masalan:

- “Aqliy hujum”;
- guruhiy ishlar;



- savol-javob mashgʻulotlari.

Bu metodlar bolalarda muloqot, fikrlash va tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Rolli oʻyinlar orqali bolalar turli kasblarni “sinab koʻradi”. Masalan, shifokor, oʻqituvchi yoki muhandis rolini bajarish orqali ular kasb mohiyatini tushunadi.

Bu metod:

- tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi;
- ijtimoiy koʻnikmalarni shakllantiradi;
- oʻrganishni qiziqarli qiladi.

Loyihaviy faoliyat bolalarning mustaqil izlanishiga asoslanadi. Masalan, “Kelajak kasblari” mavzusida kichik loyiha tashkil etish orqali bolalar yangi bilimlarni oʻzlashtiradi. Zamonaviy vositalar taʼlim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Video, animatsiya va taqdimotlar orqali kasblar haqida aniq va tushunarli maʼlumot beriladi. Bu bolalarda vizual idrokni rivojlantiradi. Planshetlar, interaktiv doskalar va mobil ilovalar orqali bolalar yangi bilimlarni oson oʻzlashtiradi. Raqamli vositalar bolalarda texnologiyaga qiziqishni oshiradi. STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, sanʼat va matematika) elementlari orqali bolalar amaliy faoliyatda ishtirok etadi. Bu yondashuv:

- mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;
- muammoni hal qilish koʻnikmasini shakllantiradi;
- kasbiy tasavvurlarni kengaytiradi.

Zamonaviy metod va vositalar bolalar rivojiga kompleks taʼsir koʻrsatadi: aqliy rivojlanish (mantiqiy fikrlash rivojlanadi, muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanadi), emotsional rivojlanish (qiziqish va motivatsiya oshadi, ijobiy emotsiyalar yuzaga keladi), ijtimoiy rivojlanish (jamoada ishlash koʻnikmasi shakllanadi, muloqot madaniyati rivojlanadi), ijodiy rivojlanish (tasavvur kengayadi, yangi gʻoyalar yaratish qobiliyati rivojlanadi).

Zamonaviy kasblarni oʻrgatishda quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

- metod va vositalarni uygʻun holda qoʻllash;
- mashgʻulotlarni qiziqarli va interfaol tashkil etish;
- bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- real hayot bilan bogʻlash;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha taʼlimda zamonaviy kasblarni oʻrgatishda metod va vositalarning samaradorligi yuqori ahamiyatga ega. Toʻgʻri tanlangan metod va vositalar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, ularning kelajak kasbiy yoʻnalishini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy taʼlim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va zamonaviy koʻnikmalarni rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev, T. K. “Oilaviy muhit va bolalarning kasb tanlashi” // Psixologiya va taʼlim. 2022. №1. 56–63-betlar.
2. Abdullaeva, G. N. “Pedagoglar tayyorgarligi va maktabgacha taʼlimda kasb tanlash” // Oʻqituvchi. 2023. №5. 22–28-betlar.



3. UNESCO. *Early Childhood Care and Education: Global Trends and Policy Recommendations*. Paris, 2021. 77–81-betlar.
4. Austrian Ministry of Education. *Berufswelt für Kinder – Handbuch für Kindergärten*. Wien, 2020. 44–50-betlar.
5. Guseynov, A. M. “Ta’lim tizimida kasb tanlash kompetensiyasining nazariy-metodik asoslari” // Ilmiy maqolalar to‘plami. TPU, 2022. 112–120-betlar.



ZAMONAVIY ANIMATSION FILMLARNING BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI

Hoshimova Mohinur Mehriddin qizi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalish 3-“V” guruh talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy animatsion filmlarning bolalar rivojiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy va pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Animatsion filmlarning bolalarning aqliy, nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, ularning axloqiy tarbiya jarayoniga ta'siri yoritilgan. Maqolada animatsion kontentning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham ko'rib chiqilib, bolalarning ekran oldida o'tkazadigan vaqtini me'yorlash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning bolalar mediakontentini nazorat qilishdagi roli muhim ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari animatsion filmlardan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: animatsion filmlar, bolalar rivoji, axloqiy tarbiya, aqliy rivojlanish, nutq o'sishi, emotsional rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar, mediata'sir, ekran vaqti, pedagogik yondashuv, tarbiya, multimedia, bolalar psixologiyasi. Bugungi globallashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari va audiovizual mahsulotlar, xususan, animatsion filmlar bolalar hayotida muhim o'rin egallab bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida yaratilayotgan animatsion filmlar nafaqat ko'ngilochar vosita, balki tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega manba sifatida ham qaralmoqda. Bolalar ushbu filmlar orqali dunyoni anglaydi, ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Animatsion filmlarni bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri quyidagilar.

1. Aqliy rivojlanishga ta'siri. Zamonaviy animatsion filmlar bolalarda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Syujetlar orqali bolalar sabab-oqibat munosabatlarini tushunadi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Qiziqarli hikoyalar orqali bolalarda tasavvur, xotira va diqqat kabi psixik jarayonlar rivojlanadi.



2. Til va nutq rivoji. Ko'pgina animatsion filmlar bolalar uchun boy lug'at manbai hisoblanadi. Qahramonlar nutqi, dialoglar va hikoya rivoji orqali bolalar yangi so'zlarni o'rganadi, gap tuzish malakasini oshiradi. Ayniqsa, multfilmlarni ona tilida yoki chet tilida tomosha qilish til o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Axloqiy tarbiya. Ko'plab animatsion filmlar do'stlik, mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi. Qahramonlar orqali bolalar to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni farqlashni o'rganadi. Bu esa ularning axloqiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Multfilmlardagi ijtimoiy vaziyatlar bolalarga jamiyatda qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Jamoada ishlash, yordam berish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Salbiy ta'sirlari quyidagilardan iborat. 1. Noto'g'ri xulq-atvorni o'zlashtirish. Agar animatsion filmlarda agressiya, zo'rvonlik yoki salbiy xatti-harakatlar ko'p uchrasa, bolalar ularni normal holat sifatida qabul qilishi mumkin. Bu esa ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Haddan tashqari ekran qarshisida vaqt o'tkazish. Bolalarning ko'p vaqtini animatsion filmlarga sarflashi ularning jismoniy faolligini kamaytiradi. Bu esa sog'liq muammolariga, ko'rish qobiliyatining pasayishiga va umumiy rivojlanishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

3. Real va virtual dunyoni farqlashda qiyinchilik. Kichik yoshdagi bolalar ko'pincha multfilm va real hayot o'rtasidagi farqni to'liq anglay olmaydi. Natijada ular animatsion obrazlarni real deb qabul qilishi va noto'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin.

4. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik. Ba'zi animatsion filmlar marketing maqsadida yaratilgan bo'lib, bolalarda iste'molchilik xulqini shakllantiradi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytirishi mumkin.

Ota-onalar va pedagoglarning roli. Bolalar rivojida animatsion filmlarning ta'sirini boshqarishda ota-onalar va pedagoglarning o'rni juda muhimdir. Ular quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- bolalar tomosha qiladigan multfilmlarni nazorat qilish;
- yoshga mos, tarbiyaviy ahamiyatga ega kontentni tanlash;
- bolalar bilan birga multfilmni muhokama qilish;
- ekran vaqtini cheklash;
- real hayotdagi faoliyatlar bilan muvozanatni saqlash.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy animatsion filmlar bolalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular bolalarning aqliy, nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita bo'lishi bilan birga, noto'g'ri tanlangan yoki nazoratsiz foydalanilgan taqdirda salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin.

Shu sababli animatsion filmlardan foydalanishda ota-onalar, pedagoglar va jamiyatning mas'uliyati katta bo'lib, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni to'g'ri yo'naltirish zarur. Faqat shundagina zamonaviy animatsion filmlar bolalar tarbiyasida samarali va foydali vositaga aylanishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. Uslubiy qo‘llanma. T: 2015
2. N.N.Djamilova. “Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T: 2018.
3. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Hakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.



**NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISH TALABALARINING TIL
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH
(GEOGRAFIYA YO'NALISHI MISOLIDA)**

Mamatkulova Fotima Ashirkulovna,

O'zDJTU, Ingliz tili nazariy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, mamatkulovafotima@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda nofilologik oliy ta'lim muassasalarida, xususan, geografiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari tahlil qilingan. Maqolada ESP (English for Specific Purposes) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvlari asosida sohaviy terminologiyani o'zlashtirish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlash mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida talabalarning diskursiv va lingvokognitiv qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetensiya, nofilologik ta'lim, Geografiya, fanlararo integratsiya, sohaviy terminologiya, texnologiya, ESP, metodik yondashuv.

Abstract: This research analyzes the scientific-theoretical and methodological problems of developing the professional English communicative competence of students in non-philological higher education institutions, specifically within the field of Geography. The article highlights the mechanisms of mastering industry-specific terminology and ensuring interdisciplinary integration based on ESP (English for Specific Purposes) and CLIL (Content and Language Integrated Learning) approaches. As a result of the study, methodical recommendations aimed at enhancing students' discursive and linguo-cognitive abilities have been systematized.

Key words: Communicative competence, non-philological education, Geography, interdisciplinary integration, industry-specific terminology, technology, ESP, methodical approach.

Аннотация: В данном исследовании анализируются научно-теоретические и методологические проблемы развития профессиональной иноязычной коммуникативной компетенции студентов нефилологических высших учебных заведений, в частности, по направлению «География». В статье освещаются механизмы освоения отраслевой терминологии и обеспечения междисциплинарной интеграции на основе подходов ESP (английский для специальных целей) и CLIL (интегрированное обучение предмету и языку). По результатам исследования систематизированы



методические рекомендации, направленные на повышение дискурсивных и лингвокогнитивных способностей студентов.

Ключевые слова: Коммуникативная компетенция, нефилологическое образование, География, междисциплинарная интеграция, отраслевая терминология, технология, ESP, методический подход.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak geograf-mutaxassislarining xorijiy tildagi tayyorgarligi ularning xalqaro ilmiy paradigmaga integratsiyalashuvini belgilovchi asosiy omildir. Xususan, zamonaviy GIS (*Geografik axborot tizimlari*) texnologiyalari va kartografik dasturiy ta'minotlar bilan ishlash, shuningdek, global ekologik monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish bevosita ingliz tilidagi akademik kompetensiyani talab etadi.

Nofilologik ta'limda til o'qitishning eng murakkab jihati — terminologik omonimiya hodisasidir. Geografiya sohasida qo'llaniladigan ko'plab leksik birliklar umumiste'moldagi ma'nosidan tubdan farq qiladi.

Masalan: "Relief" (yengillik / relyef), "Basin" (tog'ora / havza), "Current" (joriy / oqim). Bu kabi tafovutlar talabalarda kognitiv dissonansni keltirib chiqarmasligi uchun o'qitish jarayoni kontekstual yondashuvga asoslanishi lozim [1].

Geografiya yo'nalishi talabalarining til kompetensiyasini rivojlantirishda fanlararo bog'liqlikni ta'minlovchi quyidagi komponentlar muhim sanaladi:

- Leksik-tematik modullashtirish: Relyef, gidrologiya, iqlimshunoslik va iqtisodiy geografiya bo'limlarini alohida terminologik bloklarga ajratish.
- Diskursiv kompetensiya: Akademik matnlarni tahlil qilish orqali ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish [3].
- Sotsiomadaniy komponent: Xalqaro geografik hamjamiyatda qabul qilingan muloqot va etika qoidalarini o'zlashtirish.

Nofilologik yo'nalish, xususan, geografiya talabalari uchun til o'rganish shunchaki grammatik formulalarni yodlash emas, balki tilni aniq ijtimoiy va kasbiy kontekstda qo'llay olish mahoratidir. Pragmatik kompetensiya — bu talabaning vaziyatga qarab til vositalarini to'g'ri tanlay olishi, suhbatdoshning niyatini tushunishi va o'z fikrini mantiqiy, asosli bayon etishidir. An'anaviy metodlar (matnni tarjima qilish, mashq bajarish) ko'pincha "sun'iy" muhitni yaratgani sababli, talabalarda real muloqot ko'nikmasi shakllanmay qoladi. Project-based learning (PBL) esa quyidagi innovatsion vositalar orqali ushbu bo'shliqni to'ldiradi:

1. Digital Mapping: Vizualizatsiya va professional tavsif



Google Earth, ArcGIS yoki qisman QGIS kabi interfeyslar bilan ishlash geografiya talabasi uchun tabiiy muhit hisoblanadi. Bunda ingliz tili "o'rganiladigan fan" dan "ish quroli" ga aylanadi.

- Amaliy qo'llanilishi: Talaba ma'lum bir hududning (masalan, Orol dengizi havzasi yoki Farg'ona vodiysi ekotizimi) raqamli xaritasini yaratadi.
- Kompetensiya rivoji: Ob'ektlarni tavsiflashda talaba nafaqat * "there is/there are"* kabi oddiy qurilmalardan, balki sohaviy sifatlar (*arid, mountainous, urbanized, tectonic*) va fazoviy munosabatlarni ifodalovchi prepozitsiyalardan foydalanadi.
- Pragmatik jihati: Talaba o'z xaritasini chet ellik hamkasbiga taqdim etayotgandek nutq so'zlaydi. Bu yerda ma'lumotni yetkazib berish aniqligi (accuracy) va professional terminologiyadan o'rinli foydalanish (appropriateness) birinchi o'ringa chiqadi.

2. Simulation Games: Argumentatsiyalangan nutq va strategik muloqot

"Xalqaro iqlim sammiti" (International Climate Summit) kabi simulyatsiyalar talabalarni murakkab kommunikativ vaziyatlarga (negotiations) olib kiradi.

- Amaliy qo'llanilishi: Har bir talaba yoki kichik guruh muayyan davlat (masalan, "Development Countries" yoki "Industrial Giants") nomidan chiqish qiladi. Ular iqlim o'zgarishi bo'yicha o'z pozitsiyalarini ingliz tilida himoya qilishlari kerak.
- Nutqiy ko'nikmalar: Bunda talaba quyidagi nutqiy strategiyalarni o'zlashtiradi:
 - Argumentatsiya: *"In view of the rising carbon emissions, our priority is..."*
 - Rad etish yoki e'tiroz: *"I see your point, but from a geographic perspective..."*
 - Kelishuvga erishish: *"We propose a mutual agreement regarding water resources..."*
- Natija: Simulyatsiya jarayonida talaba grammatik xatodan qo'rqishni bas qiladi, chunki uning asosiy maqsadi — o'z "davlat" manfaatini himoya qilish va sheriklarini ishontirish. Bu jarayon nutqiy manevrlarni (speech acts) egallashga va pragmatik moslashuvchanlikka xizmat qiladi.

Talabalarning pragmatik kompetensiyasini oshirish uchun an'anaviy metodlardan voz kechib, "Project-based learning" (PBL) yondashuvini qo'llash tavsiya etiladi. Bunda:

1. Digital Mapping: Google Earth yoki ArcGIS interfeysi yordamida ingliz tilida ob'ektlarni tavsiflash.
2. Simulation Games: "Xalqaro iqlim sammiti" modellarini yaratish orqali argumentatsiyalangan nutqni rivojlantirish.



Geografiya yoʻnalishi talabalarining til kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun taʼlim mazmunini professional-yoʻnaltirilgan (ESP) asosda qayta loyihalash zarur. Bu jarayon:

- Oʻquv dasturlarini sohaviy eng soʻnggi ilmiy neologizmlar bilan boyitishni;
- Talabalarining mustaqil ishlarini amaliy muammolarga (masalan, Orol dengizi inqirozi tahlili) yoʻnaltirishni;
- Baholash tizimini nafaqat grammatik bilim, balki kasbiy-kommunikativ samaradorlik mezonlari asosida tashkil etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge University Press.
2. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press.
3. Umuxonov, N.B. (2026). “Nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani oʻrgatish metodikasi”. *Advances in Science and Education*. Volume 02.



РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В НЕЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Маматкулова Фотима Аширкуловна,
старший преподаватель кафедры
теоретических аспектов английского языка,
Узбекский государственный университет мировых языков,
mamatkulovafotima@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические условия формирования профессиональной компетенции студентов-географов посредством интеграции предметно-языкового обучения (content-based learning). На основе теоретического анализа раскрывается сущность понятий «компетенция» и «навык». Автор обосновывает значимость языковой подготовки на английском языке для работы с глобальными исследовательскими ресурсами и геоинформационными системами (ГИС). Описан механизм развития когнитивной сферы, критического мышления и терминологического аппарата будущих специалистов в современной экономике знаний.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, географическое образование, ESP, профильные тексты, критическое мышление.

THE ROLE OF LANGUAGE COMPETENCIES IN NON-LINGUISTIC EDUCATION

Abstract: The article examines pedagogical conditions for developing professional competence of future bachelor geographers through reading profile texts in English. Based on literature analysis, the role of ESP methodology in training specialists is determined. Criteria for mastering the terminology of geographic information systems and global processes during systematic work with sources are revealed. Special attention is paid to using cognitive strategies and improving students' critical thinking in solving professional tasks.

Key words: professional competence, geographical education, ESP, profile texts, critical thinking.

NOFILOLOGIK TA'LIMDA TIL KOMPETENSIYALARINING ROLI

Annotatsiya: Maqolada geografiya bakalavriat talabalarining kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi sohaga oid matnlarni o'qish orqali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Adabiyotlar tahlili asosida mutaxassislarini tayyorlashda ESP metodologiyasining roli belgilangan. Manbalar bilan tizimli ishlash jarayonida geoinformatsion tizimlar va global jarayonlar terminologiyasini o'zlashtirish mezonlari ochib berilgan. Professional vazifalarni hal qilishda talabalarining kognitiv strategiyalardan foydalanishi va tanqidiy tafakkurini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan.



Kalit soʻzlar: kasbiy kompetensiya, geografik taʼlim, ESP, sohaviy matnlar, tanqidiy fikrlash.

В современной экономике знаний приоритетной задачей является подготовка конкурентоспособных специалистов, способных решать такие глобальные проблемы, как изменение климата и геоинформационные технологии (ГИС). Поскольку основная часть мировых научно-исследовательских ресурсов сосредоточена на английском языке, языковая подготовка становится ведущим фактором адаптации студентов географических специальностей к профессиональной деятельности на глобальном уровне и их самостоятельного взаимодействия с современными геоданными. Вместе с тем, в качестве стратегического направления современной образовательной парадигмы особую актуальность приобретает формирование критериев компетентностного подхода у будущих специалистов, а также системное развитие этой структуры.

Анализ научной литературы показывает, что в рамках различных гносеологических и профессиональных парадигм укоренились дифференцированные (различные) подходы к феномену “компетенции” [3, 382]. В частности, исследователи часто отмечают интерпретации данного понятия в национальных и региональных научно-практических пространствах, а также детерминанту их взаимного несоответствия. Учитывая эти концептуальные диспропорции, в данном исследовании в качестве стратегической задачи было определено первоочередное эксплицирование (раскрытие) семантической и содержательной структуры категориального аппарата “компетенции”. С концептуальной точки зрения понятие “компетенция” интерпретируется как интегративная совокупность когнитивных ресурсов (знаний, умений, навыков) субъекта и его индивидуально-психологических особенностей, обеспечивающая эффективную функциональную деятельность в нестандартных и трансформационных (изменяющихся) ситуациях [2, 105-111].

Согласно концептуальному подходу Г. Вайлера и Дж. Лефстеда, компетенция представляет собой интегративный комплекс знаний, умений и навыков, формирующийся в институциональном и экстраинституциональном образовательном пространстве [1, 204]. В этой связи исследователи характеризуют компетентностное развитие как продукт непрерывной образовательной деятельности, обеспечивающей интеграцию социокультурного опыта человеком, повышение его интеллектуального потенциала и совершенствование социально-нравственных компонентов.

Данные исследователи обосновывают необходимость дифференциации (разграничения) категориальных аппаратов “компетенции” и “навыка” (квалификации/умения). В интерпретации авторов, навык представляет собой конкретное функциональное действие, материализующееся в определенном контексте, то есть эмпирический (практический) эквивалент компетенции. Если навыки являются непосредственным объектом вербального или деятельностного наблюдения, то компетенция понимается как



лингводидактический конструкт (категория), вытекающий из интерпретации этих объективных результатов. Следовательно, форма практического проявления компетенции непосредственно детерминируется через навыки.

Опираясь на данные теоретические основы, необходимо эксплицировать семантическое содержание феномена “профессиональной компетенции”. Профессиональная компетенция — это синтез специализированных навыков и индивидуально-личностных инвариантов, обеспечивающий эффективность профессиональной деятельности субъекта, и в то же время позволяющий автономно (самостоятельно) принимать решения и осуществлять прогнозирование в трансформационных (изменяющихся) условиях. В настоящее время закономерности формирования данного феномена фундаментально изучаются на стыке лингводидактики и психологии.

В частности, лингводидактами данное понятие широко используется с целью визуализации многогранных атрибутов личности и целостной концептуализации динамики ее социально-психологического формирования. С этой точки зрения профессиональная компетенция представляет собой системный комплекс профессиональных знаний, умений, навыков и личностных качеств, исходящих из потребностей успешной реализации субъектом специализированной деятельности.

Последние педагогические исследования демонстрируют высокую эффективность предметно-языкового интегрированного обучения (content-based learning) в развитии когнитивной сферы, профессиональной лексики и критического мышления студентов. Исходя из этого, в данной статье проанализирован механизм формирования профессиональной компетенции студентов географического факультета посредством работы со специализированными профильными текстами на английском языке.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вайлер Г., Лефстед Я.И. Теоретические и практические аспекты психологии и педагогики: коллективная монография / под ред. И.В. Андудян. – Уфа: Аэтерна, 2014. – 204 с.
